va izlanishlari asosiy rol o'ynagan. XXI asrda bu rivojlanish yanada jadallashdi — zamonaviy kashfiyotlar, tarmoqli tizimlar, raqamli texnologiyalar hayotning har sohasiga kirib bordi. Bu o'zgarishlar oddiy turmush tarzidan tortib, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga qadar chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Fan va texnika endi nafaqat ishlab chiqarish vositasi, balki ong, tafakkur, dunyoqarash shakllanishining asosiy omiliga aylangan. Fan texnikaning rivojlanib borishida dastlab uning inqilobi asosiy o'rin tutadi. Elektron hisoblash mashinalari fan- texnika inqilobining ramzi hisoblanib, uning paydo bo'lishi inson funksiyalarini asta-sekinlik bilan mashinalarga berishga, ishlab chiqarish va boshqaruvni kompleks avtomatlashtirishga olib keldi. Hozirgi davrda fan-texnika inqilobi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi; shu bilan bog'liq ravishda ijtimoiy mehnat taqsimotida yangi davrning boshlanishi; mehnatning xarakteri va mazmunida ijodiy elementlarning kuchayishi; yangi energiya manbalari yordamida sun'iy materiallarning yaratilishi; axborotning ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi ahamiyatining kuchayishi, ommaviy kommunikatsiya vositalarining misli ko'rilmagan taraqqiyoti; umumiy va maxsus ta'lim hamda madaniyat darajasining o'sishi; fanlararo o'zaro bog'liq murakkab muammolarni kompleks hal qilish, ijtimoiy fanlar rolining ortishi; ijtimoiy taraqqiyotning keskin tezlashishi, planeta miqyosida integratsiyalashuv; ekologik muammoning paydo bo'lishi va u bilan bog'liq xolda jamiyat-tabiati tizimini ilmiy boshqarishning zarurligi. Fan-texnika inqilobi global muammoga aylangan ayrim salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqardi. Bu muammolar (ekologiya, xalqaro terrorizm, demografiya, energiya tanqisligi bilan bog'liq va boshqalar)ni hal qilish uchun kuchlarni birlashtirish taqozo qilinadi.

Ijtimoiy ongda fan va texnika taraqqiyoti uning mazmuni va shakliga ta'sir etib boradi. Shu jumladan, ijtimoiy ong — bu jamiyat a'zolarining mavjud haqiqat haqidagi tasavvurlari, e'tiqodlari, bilimlari, qadriyatlari va ma'naviy qarashlarining yig'indisidir. U kishilarning dunyoni qanday qabul qilishi, tahlil qilishi va unga munosabatini belgilaydi. Ijtimoiy ong falsafa, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslikda keng o'rganiladigan murakkab tushunchadir. Ijtimoiy ong individual ongdan farqli ravishda jamiyat darajasida shakllanadi va tarixiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy omillarning ta'sirida rivojlanadi. Masalan, K. Marks ijtimoiy ongni jamiyatdagi moddiy munosabatlar natijasi sifatida talqin qilgan va uni «ijtimoiy mavjudlikning in'ikosi» deb atagan. Zamonaviy tadqiqotlar esa bu ongni faqat moddiylik bilan emas, balki ma'naviyat, ta'lim, kommunikatsiya vositalari va fan-texnika taraqqiyoti bilan ham bog'laydi.





Ijtimoiy ong quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

- Ta'lim va tarbiya tizimi — yosh avlodga berilayotgan bilim va qadriyatlar asosida jamiyatning ongiy tuzilmasi shakllanadi.
- Ommaviy axborot vositalari — ijtimoiy ongga ommaviy fikr orqali yo'naltiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi.
- Ilm-fan va texnika rivoji — jamiyat hayotidagi yangi kashfiyotlar, texnologiyalar yangi dunyoqarash va tafakkur shakllanishiga olib keladi.
- Diniy va madaniy qadriyatlar — ongga axloqiy, ruhiy-me'yoriy asoslar beradi.

Ijtimoiy ong insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, uni harakatlantiruvchi kuchlar ichida fan va texnika taraqqiyoti alohida ahamiyatga ega. Fan va texnika taraqqiyoti ijtimoiy ongning mazmuni va shakliga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng rivojlanishi natijasida insonlar atrofidagi voqelikni tushunish, tahlil qilish va unga munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Internet, sun'iy intellekt, mobil aloqa va boshqa texnologik yutuqlar ijtimoiy ongga yangi bilimlar, qadriyatlar, axloqiy mezonlar kirib kelishiga yo'l ochmoqda.

Ilmiy taraqqiyot tufayli insoniyat tabiat hodisalarini chuqurroq tushuna boshladi, dinamik tafakkur rivojlandi, tanqidiy fikrlash kengaydi. Masalan, ekologik fanlarning rivojlanishi natijasida global muammolar (iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi) haqida jamoaviy ong shakllanmoqda. Shu bilan birga, biotexnologiya, genetika, kosmik izlanishlar kabi fan sohalaridagi yutuqlar odamzot ongida «inson kim?» va «insoniyat qayerga bormoqda?» kabi falsafiy savollarni yangicha qo'yishga undamoqda. Biroq bu ta'sir bir yoqlama emas. Fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq muammolar — masalan, yolg'on axborot tarqalishi (feyk yangiliklar), texnologiyaga haddan ziyod qaramlik, axborot ifloslanishi kabi holatlar ham ijtimoiy ongni noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, texnologik taraqqiyotdan ongli va maqsadli foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Demak, fan va texnika taraqqiyoti ijtimoiy ongni boyitish, uni zamonaviylashtirish va har tomonlama rivojlantirish bilan birga, uni boshqarish va muvozanatga keltirish ma'suliyatini ham yuklaydi.

Zamonaviy texnologiyalar va axborot vositalarining ijtimoiy ongdagi roli ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Jumladan, zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya vositalari (AKT) ijtimoiy ong shakllanishida markaziy o'ringa chiqdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar, raqamli media platformalar odamlar fikrlashi, qaror qabul qilishi va axborotga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda inson har kuni minglab axborot



signallarini qabul qiladi. Bular orasida ilmiy asoslangan, real faktlarga tayanilgan materiallar bilan bir qatorda manipulyativ, noto'g'ri yoki bo'rttirilgan ma'lumotlar ham mavjud. Bu holat ijtimoiy ongning shakllantirishda axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash va axloqiy mezonlarga tayanishni talab etmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt va algoritmik tahlil vositalari yordamida odamlarning qiziqishlari, e'tiqodlari va hatto qaror qabul qilish jarayonlari monitoring qilinadi va yo'naltiriladi. Bu esa ongga bevosita ta'sir o'tkazish vositasiga aylanmoqda. Shuning uchun texnologiyalarning inson tafakkuriga bo'lgan ta'siri faqat axborot uzatish bilan cheklanmay, balki ongning boshqarish, shakllantirish va model qilish darajasiga chiqmoqda. Ijtimoiy ongning sog'lom shakllanishi uchun raqamli savodxonlik, ommaviy axborot vositalaridan ongli foydalanish, ilmiy asoslangan axborotni tanlay olish qobiliyati muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, ijtimoiy platformalar va ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, fan va texnika taraqqiyoti nafaqat jamiyat taraqqiyotini, balki ijtimoiy ongning ham shakllantiruvchi kuchidir. Bu jarayon orqali insoniyat o'z dunyoqarashini kengaytirmoqda, tafakkuri chuqurlashmoqda, tanqidiy fikrlashga o'rganmoqda. Shu bilan birga, texnologik taraqqiyotning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, salbiy ta'sirlari ham mavjud bo'lib, ular ongning noto'g'ri shakllanishi, axborot manipulyatsiyasi va ma'naviy muvozanatga putur yetkazish kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ijtimoiy ongning sog'lom shakllanishi uchun ilm-fanga asoslangan fikrlash, texnologiyalardan ongli foydalanish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish va axborot madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti fan va texnikaning ijtimoiy ong bilan uyg'un rivojlanishini taqozo qilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. (1997). Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
2. Turaev A.A., Rasulov S.K. (2020). Falsafa asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. Nazarov Q. (2018). Axborot jamiyati va ma'naviy xavfsizlik. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
4. To'xtayev B., Shomansurov I. (2015). Sotsiologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Castells M. (2010). The Rise of the Network Society. 2nd Edition. Wiley-Blackwell.



## Hujayralarning bo'linishi. Mitoz va meyo

Andijon Davlat Pedagogika Instituti  
Tabiiy va Aniq fanlar fakulteti  
Biologiya yo'nalishi 103-guruh talabalar :  
Djumaboyeva Muxabbat  
Bahtiyorova Marjona  
Azimova Rayhona.

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy va Aniq fanlar  
fakulteti Biologiya yo'nalishi O'qituvchisi Yo'ldashev Abduvali

### Annotatsiya

Ushbu maqolada mitoz va meyo haqida ma'lumot berilgan. Mitozning maqsadi ota-ona hujayrasi bilan bir xil xromosomalar to'plamiga ega yangi qiz hujayrani yaratishdir. Meyozning biologik ahamiyati shundaki, meyo tufayli avlodlar almashinishida xromosomalar soni o'zgarmaydi.

**Kalit so'zlar:** mitoz, meyo, metafaza, anafaza, telofaza, sitokinez, kariokinez, xromosoma.

Hujayra — barcha tirik organizmlarning eng kichik tuzilma va funksional birligi hisoblanadi. Har bir tirik mavjudotning o'sishi, rivojlanishi va ko'payishi hujayralar bo'linishiga bog'liq. Hujayra bo'linishi — bu hujayraning ikkiga bo'linib, yangi hujayralar hosil qilishi jarayonidir. Bu jarayon organizmlarning yangilanishi va nasl qoldirishida muhim ahamiyatga ega.

**Mitoz** bu (ona) hujayra bo'linishining bir turi bo'lib, genetik jihatdan o'xshash ikkita yangi (qiz) hujayra hosil bo'lishi bilan yakunlanadi. Mitoz hujayra sikli tarkibiga kirib, uning bir qismi hisoblanadi, bunda hujayra yadrosining DNKsi ikkita teng xromosoma to'plamiga bo'linadi.

Inson tanasida sodir bo'ladigan hujayra bo'linishlarining katta qismi mitoz orqali amalga oshadi. O'sish va rivojlanish davomida mitoz jarayoni organizmni hujayralar bilan to'ldiradi va organizm hayoti davomida eskirgan hujayralarni yangi hujayralar bilan almashtiradi. Mitoz jarayonining asosiy "maqsadi" yangi hosil bo'lgan har bir qiz hujayraning to'liq va mukammal xromosomalar to'plamiga ega bo'lishini ta'minlashdir. Mitoz sikli – hujayraning bo'linishga tayyorgarlik – interfaza va mitoz bo'linish jarayonlarining o'zaro bog'langan va ketma-ket keladigan hodisalar



majmuasi. Interfaza deb, hujayraning ikkita bo'linishi orasidagi vaqtga aytiladi. Interfaza ilk davrida hujayra ichidagi strukturalarning keskin o'sishi vashakllanishi boshlanadi. Bu davrga G1 - sintez oldi davri deb ataladi. Bioximiyaviy tomondan bu davr oqsil va RNK intensiv sintezi bilan ifodalanadi, bu davr bo'linuvchi hujayralar generatsiya vaqtining 30-40% ni tashkil etadi. G1 davrida uzun va o'zaro chigal hosil qilgan yadro xromatini bo'yoqlarni yomon qabul qiladi (geteroxromatin bo'limlaridan tashqari). So'ngra DNK sintezi davriga o'tadi Bu - sintetik davr - S. Bu davr davomida yadroda DNK sintezi kuzatiladi. Generatsiya vaqtining 30-50% ini tashkil qiluvchi bu davrda DNK ning spetsifik azot asosi timidin yadro xromatini tarkibiga kiradi. Sintetik davr natijasida xromosomalar, ya'ni hujayraning nasl materiali ikki marta ko'payadi. S davrdan so'ng S2- mitoz oldi davri kelib, u hujayraning spetsifik oqsillar hamda ATF sintezi va hujayraning bo'linishiga tayyorgarligi bilan ifodalanadi. Bu davr generatsiya vaqtining 10-20% ini tashkil etadi. G2-davridan so'ng, generatsiya vaqtining 5-10% ini tashkil qiluvchi M - mitoz davri boshlanadi.

Mitoz bo'linishning birinchi bosqichi *profaza* (pro – namoyon, phosis – davr) bo'lib, bunda xromatinlarning spirallashuv hisobiga yo'g'onlashishi va kaltalashishi kuzatiladi. Ular juft-juft xromatidalar holatida bo'lib, yorug'lik mikroskopida ko'rina boshlaydi. Xromosomalardagi xromatidalar sentromera orqali birikkan bo'ladi. Yadrocha parchalanadi. Sentirolalar bir-biridan itarilib hujayra qutblari tomon harakatlanadi, bo'linish urchug'i shakllana boshlaydi. Profazaning oxirida yadro qobig'i parchalanadi, natijada juft-juft xromatidalar sitoplazma va karioplazmaning umumiy massasida joylashadi. *Metafaza* (meta – keyin)da xromatidalar zichlashib, yo'g'onlashib, hujayra markazi bo'ylab to'planadi. Xromatidalar sentromerasi ekvator tekisligida joylashadi. Bo'linish urchug'i iplari (axromatin iplari) har bir xromosomaning sentromerasiga ikki qutbdan birikadi. *Anafaza* (ana – qayta) bosqichi xromosomalardagi sentromeralar bo'linib, yakka holatdagi xromatidalar bo'linish urchug'ining qisqarishi hisobiga qutblarga tarqaladi. Har bir qutbda teng miqdordagi xromosomalar tarqaladi va ularning bo'linishdan oldingi hujayraning xromosoma soniga muvofi q bo'ladi. *Telofazada* (telos – tugal) xromosoma iplarining yoyilishi, ingichka lashishi, uzayishi kuzatiladi. Xromosomalarning har bir guruhi atrofi da yadro qobig'i paydo bo'ladi, yadrocha shakllanadi. Bo'linish urchug'i parchalanadi. Shundan so'ng sitokinez boshlanadi. Hayvon hujayralarining ekvatorial tekisligida botiqlik paydo bo'lib, u borgan sari chuqurlashib boradi va sitoplazma bo'linishi tugallanadi. Qalin selluloza qobig'i bo'lgani sababli o'simlik hujayralaridagi sitokinez jarayoni



hujayraning ekvator qismida endoplazmatik to‘r orqali tashib keltirilgan maxsus moddalardan to‘siq hosil bo‘lishi bilan boshlanadi. So‘ng to‘siqning har ikki tomonida hujayra membranasi, hujayra qobig‘i shakllanib ikkita qiz hujayra paydo bo‘ladi. Hosil bo‘lgan yangi qiz hujayralar interfaza bosqichiga o‘tadi.

Biologik ahamyati

Har bir yangi hujayra bir xil xromosoma to‘plami va bir xil genlarga ega;

Genetik materialning yangi hujayralarda bir xil taqsimlanishi bilan tavsiflanadi;

Hosil bo‘lgan ikkala yangi hujayra diploid to‘plamga ega bo‘ladi; mitoz bo‘linishsiz ko‘p hujayrali organizmlarning to‘qima va organlaridagi ko‘p sonli hujayralarning tuzilishi va funksiyasining doimiyligini, irsiymaterialning bir xil bo‘lishini ta‘min lashning iloji bo‘lmas edi.

**Meyoz** (yun. meiosis — kamayish) — hujayra yadrosining xromosomalar sonining 2-marta kamayishi (reduksiya) orqali boradigan bo‘linishi. Jinsiy ko‘payadigan o‘simlik va hayvonlar uchun xos. Meyoz — irsiyat va o‘zgaruvchanlikning asosiy mexanizmi. Meyoz urug‘ va tuxum hujayra hosil qiluvchi hujayralar — spermatsit va ovotsitlarning ketma-ket ikki marta bo‘linishi (1- va 2- Meyoz)dan iborat. Har bir Meyoz bo‘linish mitoz singari 4 faza: profaza, metafaza, anafaza, telofazadan iborat. 1-Meyoz profazasida gomolog xromosomalar kon‘yugatsiyasi (o‘zaro chalkashuvi) va krossingover (gomologik xromosomalar o‘xshash qismlari o‘rtasida genlar almashinuvi) sodir bo‘ladi. Shundan so‘ng mitoz profazasidagi singari xromosomalar spirallashuvi boshlanadi.


Birinchi bo‘linish profaza I da xromosomada ko‘pgina jarayonlar ro‘y beradi. Bu bosqichning o‘zi bir qancha davrlardan iborat: liptoten, zigoten, paxiten, diploten, diakinez. Profaza I ning *leptonema* davrida aslida 2 xromatidadan iborat xromosoma iplari ingichka, nozik ipchalar hosil qiladi. Xromosomaning zichlanishi, spirallashishi bilan xromatida iplari kerini boshlaydi va xromomerlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. *Zigonema* davrda ikkita gomologik xromosoma o‘zaro tortiladi va bir-biriga xromomerlari bilan jiplashadi. Paxitena davrda xromosomalar spirallanishining davom etishi bilan ular yo‘g‘onlashadi. Yo‘g‘onlashish gomologik xromosomalarda bir vaqtda ro‘y beradi. *Diplonema* davrda paxitena davrning aksi bo‘lgan jarayon ro‘y beradi, ya‘ni gomologik xromosomalar bir-biridan itariladi va har bir xromosomada xromatidalar yaqqol ifodalanadi. Bivalent gomologik xromosomaning xromomer qismining bir-biridan itarilishidan qolgan qismlarida o‘zaro kesishib qolgan joy - xiazma aniqlanadi. Bivalentdagi gomologik xromosomaning har biridagi juft xromatida



sentromerasi bilan tutashib turgan bo'ladi. Xromosomalardagi spirallashish jarayoni davom etaveradi. Shu vaqtga kelib, yadrocha yo'qoladi, yadro membranasi parchalanadi va bo'linish duki yaqqollashadi.

1-Meyoz metafazasida gomologik xromosomalalar bir-biridan ajraladi va axromatin ipchalarga ilashib qarama-qarshi qutblarga tarqaladi. 1-Meyoz telofazasida xromosomalalar spirali yoyiladi; yadro membranasi va yadrocha shakllanadi; hujayra bo'linib, xromosomalarning gaploid to'plamiga ega bo'lgan hujayralar hosil bo'ladi. 1-Meyoz bo'linishdan so'ng hosil bo'lgan hujayralardagi xromosomalarning har qaysisi 2 tadan xromatidga ega bo'ladi. Hujayralar 2-Meyoz ga kirishishidan oldin interfaza bo'lmaganligi tufayli xromosomalalar soni oshmaydi. Qisqa interfazadan so'ng hujayralarning 2-Meyoz bo'linishi boshlanadi. 2-Meyoz ham 4 ta fazadan iborat. 2-Meyoz telofazasida DNK yangi hosil bo'lgan hujayralar o'rtasida teng taqsimlanganidan xromosomalalar soni 2 hissa kamayadi. Xromosomalalar sonining 2 hissa kamayishi bilan poyoniga yetadigan bu jarayon reduksion bo'linish deyiladi. Organizmlar hayot siklida 3 xil Meyoz kuzatiladi. Odam, barcha ko'p hujayrali hayvonlar va ayrim tuban o'simliklar jinsiy organlarida (Urug'don, Tuxumdon) boradigan gametali, ya'ni terminal (uchki) Meyozda gametalar hosil bo'ladi (Gametogenez). Urug' hujayralarning hosil bo'lishi spermatogenez, tuxum hujayralarning hosil bo'lishi ovogenez deyiladi. Ko'pchilik zamburug'lar va suvo'tlarda urug'langan tuxum hujayralanib bo'linib, gaploid zoosporalar hosil qilishi zigota Meyoz deyiladi. Yuksak o'simliklarning jinsiy organlarida gaploid sporalarning hosil bo'lishi (sporogenez)dan iborat jarayon spora Meyoz, ya'ni oraliq Meyoz deyiladi. Meyoz ota yoki ona organizm xromosomalari hosil bo'lgan jinsiy hujayralar (Gametalar) o'rtasida teng taqsimlanadi. Gametalar ota-onalar organizmlari irsiy belgilarini tashuvchilar hisoblanadi. Jinsiy hujayralarning qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan zigotada xromosomalarning diploid to'plami tiklanadi. Zigotada erkak va urg'ochi organizm irsiy belgilari mujassamlashgan bo'ladi.

Meyozning biologik ahamiyati. Meyoz jarayonida 1 ta diploid to'plimli hujayradan 4 ta gaploid hujayralar hosil bo'ladi. Meyoz jarayonida sodir bo'ladigan konyugatsiya, krossingover, gomologik xromosomalarning ta'sirida sodir bo'ladigan kombinatsiyalarda tarqalishi tufayli bir-biridan va boshlang'ich ona hujayradan genetik jihatdan farq qiladi. Meyoz jarayoni asosida kombinativ o'zgaruvchanlik yotadi.




### Meyoz jarayoni.

**Xulosa.** Meyoz va mitoz bo'linishlar tirik organizmlar hayotida ajralmas o'rin tutadi. Ular nafaqat hujayraning bo'linishi, balki butun organizmning hayotiy faoliyati, o'sishi, rivojlanishi va nasl qoldirishi bilan bevosita bog'liqdir. Mitoz bo'linish orqali organizm o'zining hujayralarini yangilaydi, to'qimalarni tiklaydi va o'sishni ta'minlaydi. Ayniqsa, bolalar o'sish davrida mitoz faol ravishda ishlaydi. Shuningdek, mitoz orqali hujayralar soni ortib, tirik organizm hayotini davom ettiradi. Meyoz bo'linish esa genetik xilma-xillikning asosi hisoblanadi. Bu jarayon tufayli har bir yangi avlod o'ziga xos genetik tuzilishga ega bo'ladi. Bu esa tabiiy tanlanish, moslashuv va evolyutsiya jarayonlarining asosidir. Meyoz orqali avlodlar orasida genetik ma'lumotlar sog'lom tarzda uzatiladi, bu esa tur davomiyligini ta'minlaydi. Mitoz – hayotning hozirgi davomiyligi uchun, meyoza esa kelajak avlodlar uchun zarur. Ikkalasi ham bir-birini to'ldiruvchi muhim biologik jarayonlar bo'lib, tabiatdagi barqarorlik va hayotiylikni ta'minlaydi. Har bir inson, har bir organizm aynan shu ikki muhim bo'linish mexanizmi bilan rivojlanadi va yashaydi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 .N.Grin va boshq. "Biologiya". 1990y.
- 2 .A.S.Troshin va boshq. "Sitologiya". 1970y-.
- 3.T.B.Boyqobilov, X.Ikromov "Sitologiya."1980y.
4. Sattiboev M.S. "O'simlik hujayrasi".T. 1990y.
5. Maqsudov Z.M. "Umumiy genetika". Toshkent. «Uqituvchi», 1981.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



Research Science and  
Innovation House





## KO'P KURASH SPORTINING TARIXI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Andijon davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi  
**Mirzalimov Muslimbek Soatjon o'g'li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ko'p kurash sportining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari tahlil qilinadi. Mazkur sport turining jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni, yoshlar orasida ommalashuvi, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi hamda xalqaro tajribaga asoslangan holda kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, sportchilarning har tomonlama tayyorgarligini ta'minlash, ilmiy-uslubiy asoslarni kuchaytirish va infratuzilmani rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'p kurash, sport rivoji, zamonaviy tendensiyalar, sportchilar tayyorgarligi, infratuzilma, sog'lom turmush tarzi, xalqaro tajriba.

### **Kirish**

Ko'p kurash sporti ko'p tarmoqli jismoniy faoliyat turlarini o'z ichiga olgan murakkab va serqirra sport yo'nalishidir. Bu sport turi bir nechta turli yo'nalishdagi jismoniy mashqlarni birlashtirib, sportchidan keng qamrovli jismoniy, ruhiy va taktika-texnik tayyorgarlikni talab etadi. Ko'p kurash turlari orasida zamonaviy pentatlon, triatlon, dekatlon kabi yo'nalishlar mavjud bo'lib, ular zamonaviy sport sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda ko'p kurash sportining ommalashuvi, unga bo'lgan yoshlarning qiziqishi ortib borayotganini kuzatish mumkin. Bunga sabab sifatida global miqyosda sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojning ortishi, ko'p kurash sportining universal va har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari, shuningdek, sport texnologiyalarining jadal rivojlanayotganini ko'rsatish mumkin. Ko'p kurash sporti sportchilarda chidamlilik, tezkorlik, muvozanat, mantiqiy fikrlash, strategik yondashuv kabi jihatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, sportchining psixologik barqarorligi va raqobatbardoshligi ham shakllanadi.

### **Asosiy qism**

Gretsiyadagi qadimgi olimpia o'yinlarda ko'pkurash (pentatlon) kurashlarning asosiy turi hisoblangan, shuning asosida Olimpia o'yinlarini tashkillanishida ko'p



kurash ham tashkil topdi. Pentatlon ma'nosi beshkurashni anglatadi. Bu musobaqada jismonan har tomonlama rivojlangan, baquvat, kuchli atletlar musobaqalashgan. Musobaqalar qadimgi Olimpia o'yinlarida (beshkurash) bo'yicha o'tkazilgan va bu musobaqalar o'sha davrlarda mashhur va qiziqarli bo'lgan. unda uzunlikka sakrash, disk uloqtirish, (bir stadiyga yugurish) ya'ni 192 metr 27 santimetrni tashkil etgan nayza uloqtirish va kurash tushishdan iborat bo'lgan. Zamonaviy Olimpiada o'yinlariga 1912-yil o'ngurash turi birinchi bor kiritildi. O'ngurash yengil atletika mashqlarining 10-turini o'z ichiga olgan. Musobaqa ikki kun davomida o'tkaziladi. Birinchi kun 100 metrga yugurish, yugurib kelib uzunlikka sakrash, yadro itqitish, yugurib kelib balandlikka sakrash, 400 metrga yugurishdan iborat. Ikkinchi kun 110 metrga g'ovlar osha yugurish, disk uloqtirish, langarcho'p bilan balandlikka sakrash, nayza uloqtirish, 1500 metrga yugurishdan iborat. O'ngurashchi sportchilarning natijalari har bir turda ko'rsatgan natijalari uchun olgan ochkolar yig'indisi bilan hisoblanadi, buning uchun maxsus ochkolar jadvali mavjuddir. Bu olimpia o'yinida hind millatida taalluqli amerikalik sportchi R.Torp oltin medalni ko'lga kiritdi.

1984-yil AQSHda yengil atletikani sevuvchilar ittifoqi Amerikaga ko'pkurash musobaqalarini doimiy ravishda o'tkazishni taklif qilishlari natijasida uning dasturiga quyidagi turlar kiritildi:

- 100 yardovga yugurish;
- 16 funtli yadroni itqitish;
- balandlikka sakrash;
- $\frac{1}{2}$  millga yugurish;
- 16 futli bosqon uloqtirish;
- 120 yadroga g'ovlar osha yugurish;
- 56 funt og'irlikni uloqtirish;
- uzunlikka sakrash;
- 1 millga yugurish;

1984-yil AQSH birinchi marta turlar bo'yicha ochkolar jadvali ishlab chiqildi. Musobaqa 1 kun davomida o'tkazilib, o'ngurash turi orasidagi dam olish 5 minutni tashkil qilardi (V.D.Polishuk va boshqalar 2001-yil, R.N.Barnsh, va boshqalar 1996-yil). Xalqaro toifadagi o'ngurashchilarning dastlabki ustalari yevropalik sportchilardir. Bular jahon rekordchi sportchilari estonest A.Kluiberch, finlar P.Yurvelxo, A.Yarvinen, va nemis G.Zivert. rossiyalik xizmat ko'rsatgan sport ustasi A.Demin, I.Stepanchenok o'ngurashdan birinchilardan bo'lib jahon miqiyosidagi natijaga



yaqinlashgan bo'lishsa, S.Kuznestov birinchi bo'lib 7 minglik ochkodan yuqori natija ko'rsatdi.

Ko'pkurashchilar erishadigon natijalarni yaxshilash ko'plab omillarga bog'liq hisoblanadi, ular orasida eng asosiylari quyidagi yettitalikni tashkil qiladi:

- ijtimoiy shart-sharoitlar (jamiyatda ayollarning tutgan o'rni o'zgarishi, professional va tijorat yo'nalishidagi sportga o'tish);
- moddiy va texnik shart – sharoitlar (yo'laklar va yugurish zonalari uchun, shuningdek, balandlikka sakrash sektori uchun, yerga tushish handaqlari uchun maxsus sun'iy qoplamalar ishlab chiqarilishi, kiyim – kechaklar, oyoq kiyimlar va hokazolar);
- milliy va halqaro miqyosda yengil atletika dasturi tarkibining kengayishi;
- hisoblash tizimining o'zgarishi;
- mashg'ulotlar jarayonining o'zgarishi.

Yaxshi darajada harakatlar muvofiqligi (*koordinatsiya*) – ko'pkurashchi ayollarga o'z harakatlarini maqsadga yo'naltirilgan tarzda boshqarish, to'g'ri harakatlardan tezkorlikda foydalanishi va tashqi va ichki sharoitlarga moslashish imkonini beradi. Texnik mahoratga qo'shimcha tarzda, ular yakka tartibdagi sport turlarida ko'pkurash uchun talab qilinuvchi maxsus texnik va taktik mahoratni ham egallashlari zarur hisoblanadi. Ko'pkurash mashqlarining asosini sportchilarning tayyorgarlik holati va texnikasi tashkil qiladi. Mashg'ulotlar vaqtida umumiy sifatlar shakllantirilishi boshlanadi, keyin esa maxsus mahorat sayqalanishiga o'tiladi. Mashg'ulotlar uchun mashqlarni tanlab olishda biz tayyorgarlik mashqlaridan boshlaymiz, keyin esa rivojlantiruvchi mashqlarga o'tiladi, har ikkala holatda ham umumiy mashqlardan maxsus mashqlarga o'tish amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar uslubiyatini tanlashda biz nisbatan kamroq darajada intensivlikka ega bo'lgan uslublardan nisbatan ko'proq darajada intensivlikka ega uslublarga o'tishni amalga oshiramiz.

Ko'p kurashning rivojlanish tendensiyalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bir necha asosiy yo'nalishlarni ajratish mumkin. Birinchidan, musobaqa formatlari tobora takomillashib, sportchilarning salohiyatini to'liq ochib berishga xizmat qilmoqda. Masalan, zamonaviy pentatlon tarkibidagi musobaqa turlari qayta ko'rib chiqilib, lazer pistoli otish, suzish, yugurish va qilichbozlik kabi yo'nalishlar o'zaro muvofiqlashtirilgan. Ikkinchidan, ko'p kurash sportiga zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy qilinmoqda: sportchilar harakatlarini tahlil qilish, ularning funksional holatini monitoring qilish imkoniyati kengaymoqda. Uchinchidan, yoshlar orasida bu sport turining targ'iboti kuchayib bormoqda. Maxsus maktab va sport



klublarida ko'p kurash bo'yicha bo'limlar ochilmoqda, bu esa iqtidorli sportchilarni erta aniqlash va tayyorlashga imkon bermoqda. Yana bir muhim tendensiya sifatida ko'p kurash sportining gender jihatdan tenglashtirilayotganini qayd etish mumkin. Avvallari asosan erkaklar ishtirok etgan ko'p kurash musobaqalarida bugun ayollar ham faol ishtirok etmoqda. Bu esa sportning demokratiklashuvi va jamoaviy ruhda rivojlanishiga turtki bermoqda. Shuningdek, xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan sportchilar sonining ortib borayotgani ham e'tiborga molikdir. Ko'plab davlatlar bu yo'nalishda sportchilarni tayyorlash, ularni xalqaro maydonlarda qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat bermoqda. Ko'p kurash sportining istiqbollari esa bevosita mazkur sport turi atrofida yaratilayotgan infratuzilma, ilmiy-uslubiy ta'minot va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bog'liq. Kelajakda bu sport turining keng ommalashuvi uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim: birinchidan, sport maktablarida ko'p kurash yo'nalishini rivojlantirish, zarur sport anjomlari bilan ta'minlash; ikkinchidan, trener-kadrlar salohiyatini oshirish, zamonaviy tayyorgarlik metodikalarini amaliyotga joriy etish; uchinchidan, sportchilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ular uchun grantlar, stipendiyalar va boshqa rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish. Shuningdek, ko'p kurash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, sportchilarning psixologik, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlarini kompleks o'rganish orqali samarali tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu borada xalqaro tajriba va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, milliy sharoitlarga moslashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ko'p kurash sportining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyalari uni kelajakda yanada ommaviy, raqobatbardosh va jahon miqyosida e'tirof etilgan sport turiga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Ushbu sport turini yanada rivojlantirish esa yosh avlodning sog'lom, jismonan baquvvat va har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa:** Ko'p kurash sporti bugungi kunda nafaqat jismoniy salohiyatni, balki ruhiy barqarorlik, strategik fikrlash va irodaviy sifatlarni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Uning rivojlanish tendensiyalari sport sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishni, yosh sportchilarni erta tayyorlash tizimini shakllantirishni va gender tenglikni mustahkamlashni taqozo etmoqda. Kelajakda ko'p kurash sportini yanada ommalashtirish uchun tizimli ilmiy izlanishlar, metodik yondashuvlar va moddiy-texnik bazani takomillashtirish zarur. Mazkur sport turi sog'lom va jismonan yetuk avlodni tarbiyalashda muhim omil sifatida qaralmoqda.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. A. Zamonaviy sport turlari asoslari. – Toshkent: O‘zDJTI nashriyoti, 2020.
2. Norqulov S. R. Sport mashg‘ulotlari metodikasi. – Samarqand: SamDU, 2018.
3. Qodirov B. N., Yusupov D. T. Yosh sportchilarni tayyorlash asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Mamatqulov I. I. Sport va sog‘lom turmush tarzi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Xolboev D. R. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti nashriyoti, 2017.
6. Xalqaro Pentatlon Federatsiyasi (UIPM) rasmiy veb-sayti: <https://www.uipmworld.org>

Research Science and  
Innovation House





Ўзбекистон Давлат бошқаруви тизимида “Ҳуқуқий давлат”  
тамойилларини ривожлантириш масалалари  
Содиков Хуршидбек Солижон ўғли Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон  
Миллий университети магистранти  
[sodikovkhurshidbek11@gmail.com](mailto:sodikovkhurshidbek11@gmail.com)

Проблемы развития принципов “Правового государства” в системе  
Государственного управления Узбекистана  
Содиков Хуршидбек Солижон угли, магистрант Национального  
университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
[sodikovkhurshidbek11@gmail.com](mailto:sodikovkhurshidbek11@gmail.com)

Issues of Developing the Principles of a “Rule-of-Law State” in the Public  
Administration System of Uzbekistan  
Sodikov Khurshidbek Solijon ugli, Master’s student at the National University of  
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
[sodikovkhurshidbek@gmail.com](mailto:sodikovkhurshidbek@gmail.com)

**Аннотация.** Ушбу мақола Ўзбекистон Республикаси давлат бошқаруви тизимида “ҳуқуқий давлат” таможилларини ривожлантиришнинг долзарб масалаларига бағишланади. Мақолада ҳуқуқий давлат концепциясининг назарий асослари, Ўзбекистонда уни амалга оширишдаги муаммолар ва истикболли йўналишлар кўриб чиқилади. Хусусан, қонун устуворлиги, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, давлат органларининг шаффофлиги ва коррупцияга қарши курашиш каби муҳим жиҳатлар таҳлил қилинади. Шунингдек, Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислохотлар ва уларнинг натижаларига алоҳида эътибор қаратилади. Мақола хулосасида келгусидаги ривожланиш учун таклифлар берилади.

**Калит сўзлар:** Ўзбекистон Республикаси, ҳуқуқий давлат, давлат бошқаруви, қонун устуворлиги, инсон ҳуқуқлари, шаффофлик, коррупцияга қарши курашиш, ислохотлар.

**Аннотация.** Данная статья посвящена актуальным вопросам развития принципов “правового государства” в системе государственного управления Республики Узбекистан. В статье рассматриваются теоретические основы концепции правового государства, проблемы ее реализации в Узбекистане и перспективные направления. Особое внимание уделяется таким важным



аспектам, как верховенство закона, защита прав человека, прозрачность государственных органов и борьба с коррупцией. Также акцентируется внимание на реформах, проводимых в Узбекистане, и их результатах. В заключении статьи предлагаются рекомендации для дальнейшего развития.

**Ключевые слова:** Республика Узбекистан, правовое государство, государственное управление, верховенство закона, права человека, прозрачность, борьба с коррупцией, реформы.

**Abstract.** This article is dedicated to the pressing issues of developing the principles of a “rule-of-law state” within the system of public administration of the Republic of Uzbekistan. The article examines the theoretical foundations of the concept of a rule-of-law state, the challenges of its implementation in Uzbekistan, and prospective directions. Special focus is placed on key aspects such as the rule of law, protection of human rights, transparency of state institutions, and anti-corruption efforts. Additionally, the reforms being implemented in Uzbekistan and their outcomes are highlighted. The article concludes with recommendations for future development.

**Keywords:** Republic of Uzbekistan, rule-of-law state, public administration, rule of law, human rights, transparency, anti-corruption, reforms.

“Хуқуқий давлат” концепцияси замонавий давлат бошқаруви тизимларида асосий тамойиллардан бири сифатида эътироф этилади. У қонун устуворлиги, давлат органларининг фаолиятида шаффофлик ва адолатлилик, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларининг кафолатланиши каби муҳим жиҳатларни ўз ичига олади. Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан сўнг, давлат бошқаруви тизимини модернизация қилиш ва уни демократик принципларга мослаштириш йўлида муҳим қадамлар ташлади. 2017 йилдан бошлаб амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар, хусусан, “Халқ билан мулоқот” ва “Очиқлик” сиёсати, мамлакатда ҳуқуқий давлатнинг асосий тамойилларини ривожлантиришга хизмат қилмоқда.

Ўзбекистонда ҳуқуқий давлат тамойилларини амалга ошириш нафақат миллий қонунчиликни такомиллаштириш, балки давлат идораларининг фаолиятини жамият манфаатларига мослаштириш ва фуқароларнинг сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқларини таъминлашни ҳам талаб қилади. Бу жараёнда бир қатор муаммолар, жумладан, бюрократия, коррупция, давлат органларининг очиқлиги ва масъулиятининг етарли даражада бўлмаслиги каби омиллар мавжудлиги кузатилади. Шу билан бирга, сўнгги йилларда олиб



борилаётган ислохотлар, қонунчилик базасини мустаҳкамлаш ва халқаро тажрибани қабул қилиш орқали ушбу муаммоларни енгишга қаратилган муҳим қадамлар ташланмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституциясининг 1-моддасида мамлакат демократик, ҳуқуқий ва ижтимоий давлат [1.] сифатида эълон қилинган. Бу тамойилни амалда татбиқ этиш учун сўнгги йилларда бир қатор қонунчилик ислохотлари амалга оширилди, давлат бошқаруви тизимини модернизация қилиш ва фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини ошириш бўйича муҳим қадамлар ташланди. Бироқ, бу жараёнда бир қатор муаммолар ва тўсиқлар мавжудлигини ҳам инкор қилиб бўлмайди. Масалан, қонунларнинг ижросидаги камчиликлар, коррупция, бюрократия ва фуқароларнинг ҳуқуқий билимларининг етарли даражада бўлмаслиги ҳуқуқий давлатнинг тўлиқ шаклланишига тўсқинлик қилмоқда.

Ҳуқуқий давлатнинг назарий асослари ва унинг Ўзбекистондаги тарихи ҳуқуқий давлат концепцияси тарихан ғарб демократияларида ривожланган бўлиб, унинг асосий тамойиллари Аристотель, Джон Локк ва Монтескьё каби мутафаккирларнинг ишларида ўз аксини топган. Замонавий даврда эса бу концепция халқаро стандартлар, жумладан, БМТнинг Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси каби ҳужжатларда мустаҳкамланган.

Ўзбекистон Республикасида 1992 йилда қабул қилинган Конституция мамлакатда қонун устуворлигини таъминлаш учун муҳим асос бўлди. 2016 йилдан бошлаб янги раҳбарият бошчилигидаги ислохотлар бу жараёнга янгича импульс берди. Масалан, “Ҳаракатлар стратегияси” (2017-2021) ва “Ўзбекистон-2030” стратегиясида ҳуқуқий давлатни мустаҳкамлаш асосий вазифалардан бири сифатида белгиланди[3].

Ўзбекистонда қонун устуворлигини таъминлаш: амалий қадамлар сўнгги йилларда Ўзбекистонда қонун устуворлигини таъминлаш бўйича бир қатор муҳим қадамлар қўйилди:

- 1) Қонунчилик базасини такомиллаштириш: 2022 йилда “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги қонун қабул қилиниб, давлат хизматчиларининг фаолиятини шаффоф ва қонунга мувофиқ амалга оширишга қаратилган[2].
- 2) Суд-ҳуқуқ ислохотлари: Суд тизимининг мустақиллигини ошириш мақсадида судьяларни танлаш ва тайинлашда шаффоф механизмлар жорий этилди.



3) Коррупцияга қарши курашиш: 2020 йилда Коррупцияга қарши курашиш агентлиги ташкил этилиб, давлат бошқарувидаги очиқлик ва ҳисобдорликни оширишга хизмат қилмоқда. Бу ислохотлар фуқароларнинг давлат органларига ишончи ошишига хизмат қилди.

Масалан, Transparency International ташкилоти маълумотларига кўра, Ўзбекистоннинг коррупция индексидаги кўрсаткичлари[4.] 2016 йилдан бери муайян даражада яхшиланди.

Ўзбекистонда ҳуқуқий давлатни шакллантириш борасида катта ютуқлар ва муҳим қадамлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга, муваффақиятларни мустаҳкамлаш ва янги босқичга кўтариш учун айрим жиҳатларга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Жумладан, қуйидаги масалаларга эътибор қаратиш давлат бошқарувини янада такомиллаштиришга хизмат қилади.

Биринчи навбатда, қонунларнинг ижросидаги аниқлик ва самарадорликни ошириш муҳим. Қонунлар ўз вазифасини тўлиқ бажариши учун уларнинг амалий татбиқига жиддий эътибор қаратилмоқда. Ҳукумат ва тегишли идоралар томонидан қонунларнинг бажарилишини назорат қилиш тизимлари такомиллаштирилмоқда ва бу борадаги саъй-ҳаракатлар ортиб бормоқда.

Иккинчидан, аҳолининг ҳуқуқий маданиятини юксалтириш масаласи энг муҳим вазифалардан биридир. Фуқароларнинг ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини тўғри тушунишлари, қонунларга амал қилишлари учун кенг жамоатчилик ва таълим муассасаларида ҳуқуқий тарғибот ишлари фаол олиб борилмоқда. Бу йўналишда давлат органлари ҳамда фуқаролик жамияти институтлари биргаликда самарали лойиҳаларни амалга оширмоқда.

Учинчидан, бюрократия ва коррупцияга қарши курашиш бўйича тизимли чоралар амалга оширилмоқда. Бу муаммоларни бартараф этиш учун давлат идоралари ичида шаффофлик ва масъулиятни оширишга қаратилган ислохотлар давом этмоқда. Қонунбузарликларга нисбатан қатъий чоралар кўриляётгани билан бирга, жамоатчилик назоратини кучайтириш йўллари ҳам жорий этилмоқда.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда ҳуқуқий давлатни барпо этиш йўлида бир қатор муҳим қадамлар қўйилди. Қонун устуворлигини таъминлаш, давлат бошқарувини такомиллаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш бўйича амалга ошириляётган ислохотлар ижтимоий ҳаётда ўз самарасини бермоқда. Шу билан бирга, мазкур жараёнда ҳал қилиниши лозим бўлган айрим муаммолар ҳам мавжуд. Хусусан, қонунлар қабул қилинганидан сўнг уларни



амалиётда тўлиқ ва самарали ижро этиш бўйича ҳали ҳам иш олиб бориш талаб этилади. Бу соҳадаги саъй-ҳаракатлар давом эттирилмоқда ва ижро интизомини оширишга қаратилган чоралар кўрилмоқда. Фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини ошириш ҳам муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Охириги йилларда аҳоли ўртасида ҳуқуқий тарғибот ишлари фаоллаштирилганига қарамай, бу борада янада кенг қамровли ва тизимли ёндашув талаб этилади. Шу орқали ҳар бир фуқаронинг ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини англаб етиши таъминланади.

Бюрократия ва коррупцияга қарши курашиш масаласи ҳам давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда. Ислохотлар доирасида шаффофликни таъминлаш, давлат хизматларини рақамлаштириш ва жамоатчилик назоратини кучайтириш орқали бу муаммони бартараф этиш бўйича аниқ чоралар кўрилмоқда.

Умуман олганда, мавжуд муаммоларга қарамасдан, Ўзбекистонда ҳуқуқий давлат барпо этиш ва самарали давлат бошқарувини шакллантириш йўлида барқарор ҳаракат давом этмоқда. Бу жараёнда фуқароларнинг фаол иштироки ва давлат органлари билан ҳамкорлиги муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистонда ҳуқуқий давлат тамойилларини ривожлантириш мамлакатнинг узоқ муддатли демократик, ижтимоий ва иқтисодий тараққиётини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Сўнгги йилларда бу йўналишда амалга оширилган ислохотлар, жумладан, қонунчилик базасини такомиллаштириш, суд-ҳуқуқ тизимини модернизация қилиш ва коррупцияга қарши курашиш бўйича ташкил этилган махсус механизмлар муайян натижалар бермоқда. Масалан, суд тизимининг мустақиллигини оширишга қаратилган қадамлар, “Электрон ҳуқумат” тизимининг ривожланиши ва давлат хизматларининг шаффофлигини таъминлашга доир саъй-ҳаракатлар фуқароларнинг давлат органларига бўлган ишончини мустаҳкамлашда муҳим ўрин тутмоқда. Шунингдек, халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик ва глобал стандартларга мослашиш бўйича олиб борилаётган ишлар Ўзбекистоннинг дунё ҳамжамиятидаги обрўсини оширишга хизмат қилмоқда.

Бироқ, юқоридаги муваффақиятларга қарамай, ҳуқуқий давлатнинг тўлиқ шаклланишида бир қатор тўсиқлар ва муаммолар мавжудлигини инкор этиб бўлмайди. Қонунларнинг ижросидаги камчиликлар, айрим ҳолларда бюрократия ва коррупциянинг сақланиб қолиши, шунингдек, аҳолининг ҳуқуқий маданияти ва хабардорлигининг пастлиги бу жараёнга тўсқинлик қилувчи омиллар



сифатида кўзга ташланади. Ушбу муаммоларни бартараф этиш учун давлат бошқаруви тизимидаги ислохотларни янада чуқурлаштириш, қонунларни амалга оширишдаги назорат ва мониторинг механизмларини кучайтириш, аҳолининг ҳуқуқий билимларини оширишга қаратилган тарғибот ва таълим ишларини кенгайтириш зарур.

Мақолада келтирилган тавсиялар, хусусан, давлат хизматларини рақамлаштиришни янада ривожлантириш, фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини оширишга қаратилган таълим дастурларини кучайтириш ва халқаро тажрибадан фойдаланиш орқали Ўзбекистонда ҳуқуқий давлатнинг мустаҳкам базасини яратиш мумкин. Бу нафақат давлат бошқаруви тизимининг самарадорлигини оширади, балки фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг тўлиқ кафолатланишига, уларнинг давлат бошқарувида фаол иштирок этишига ва умуман, ҳаёт сифатининг яхшиланишига хизмат қилади.

Умуман олганда, ҳуқуқий давлатнинг ривожланиши Ўзбекистон учун нафақат сиёсий ва ҳуқуқий ислохотларнинг бир қисми, балки мамлакатнинг барқарор ва фаровон келажагини куришдаги асосий йўналишлардан биридир. Бу йўлдаги саъй-ҳаракатларни давом эттириш ва мавжуд муаммоларни енгиб ўтиш орқали Ўзбекистон ўзининг Конституциясида белгиланган демократик ва ҳуқуқий давлат сифатидаги мақсадларига тўлиқ эришиш имкониятига эга бўлади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
2. “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни, ЎРҚ-788-сон, 2022 йил 8 август.
3. Ш.Мирзиёев. “Ўзбекистон-2030” стратегияси: Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
4. Transparency International. Коррупция индекси 2022.
5. Аристотель. “Сиёсат”. – Тошкент: Шарқ, 2000.
6. Монтескьё. “Қонунлар руҳи ҳақида”. – Тошкент: Адолат, 1999.
7. БМТ. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, 1948 йил.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент, 2017.





## O'QITUVCHINING KASBIY MAHORATINI SHAKILLANTIRSHDA PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK NAZARIYALARINING AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti 3-bosqich talabasi  
Yo'ldasheva Dilrabobonu Muhtorali qizi  
[dilraboyuldasheva0403@gmail.com](mailto:dilraboyuldasheva0403@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi kunda jahon ta'lim tizimida yuz berayotgan islohotlar, zamonaviy texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuvlar va individual yondashuvga asoslangan ta'lim metodlarining rivojlanishi o'qituvchining kasbiy mahoratiga qo'yilayotgan talablarni tubdan o'zgarishi, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy tizimga moslashtirish jarayonida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahoratini shakllantirish dolzarb muammolardan biriga aylanayotganligiga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, ijtimoiy, madaniy, qobiliyat, psixologik, pedagogik, kompetensiya, shaxsiy rivojlanish  
O'qituvchi – bu jamiyatda alohida ijtimoiy va madaniy mavqega ega bo'lgan, insonlar ongiga, tafakkuriga va tarbiyasiga bevosita ta'sir etuvchi shaxsdir. Ularning faoliyati bevosita yosh avlodni shakllantirish, ularga bilim, tarbiya va ko'nikmalar berish bilan bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy jamiyatda o'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim sifati va samaradorligining eng muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy mahorat — bu o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini yuqori darajada samarali va ijodiy amalga oshira olish qobiliyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga individual yondasha olishi, ta'limning zamonaviy<sup>1</sup> shakl va usullaridan samarali foydalana olishi talab etiladi. Kasbiy mahorat o'qituvchining nazariy bilimlari, amaliy malakalari, shaxsiy sifatlari, pedagogik tafakkuri va axloqiy madaniyatining uyg'unligidan tarkib topadi.

<sup>1</sup> **Shavkat Mirziyoyev:** Bizning asosiy maqsadimiz — xalqimizning farovonligi, yurtimizning obro'si va taraqqiyotidir. Har bir o'zgarish va islohot ana shu maqsadga xizmat qilishi kerak. Har bir insonning hayot sifatini yaxshilash uchun barcha kuchlarni safarbar qilishimiz lozim."



O'qituvchining kasbiy mahorati bir nechta asosiy yo'nalishlar va tarkibiy qismlar orqali namoyon bo'ladi. Avvalo, bu pedagogik bilimlarning yetarli darajada egallanishi bilan belgilanadi. Pedagogik bilimlarga didaktika, tarbiya nazariyasi, pedagogik psixologiya, yosh xususiyatlari, metodika, innovatsion texnologiyalar kiradi. Ushbu bilimlar o'qituvchiga darsni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olish, ta'limni zamonaviy yondashuvlar asosida olib borish imkonini beradi. Kasbiy mahoratning muhim tarkibiy qismiga pedagogik kompetensiyalar kiradi. Kompetensiya – bu o'z kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning uyg'unligidir. O'qituvchining pedagogik kompetensiyasi bir necha turda namoyon bo'ladi: metodik kompetensiya, psixologik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, texnologik kompetensiya va reflektiv kompetensiya. Metodik kompetensiya – bu dars jarayonini to'g'ri tashkil etish, materialni o'quvchilarga tushunarli yetkazish, o'quvchilar faoliyatini baholash kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Psixologik kompetensiya – bu o'quvchilarning ruhiy-psixologik holatini anglash, ularning rivojlanishiga mos tarzda yondashish, stress holatlarida ijobiy muhitni saqlay olishdir.

Kommunikativ kompetensiya esa o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va jamoatchilik bilan samarali muloqot olib borish qobiliyatidir. Texnologik kompetensiya –bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida oqilona foydalanish, raqamli vositalardan foydalangan holda ta'limni tashkil etishdir. Reflektiv kompetensiya esa o'qituvchining o'z faoliyatini<sup>2</sup> doimiy tahlil qilish, xatolarini anglab, ularni bartaraf etish yo'lida ishlashga tayyorligi bilan bog'liqdir.

Pedagogik nazariyalar – bu ta'lim-tarbiya jarayonini chuqur tahlil qiluvchi, ilmiy asoslangan tamoyillar, qonuniyatlar va yondashuvlar tizimidir. Ushbu nazariyalar ta'limning mohiyati, maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarini asoslab beradi hamda pedagogik amaliyotda qanday yondashuvlar samarali bo'lishini ko'rsatadi. O'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirishda ushbu nazariyalar muhim asos bo'lib xizmat qiladi, chunki ular o'qituvchiga ta'lim jarayonini to'g'ri rejalashtirish, boshqarish va baholashda ilmiy asoslangan yo'l ko'rsatadi.

Pedagogik nazariyalar o'qituvchining bilim doirasini kengaytiradi, uni didaktik, tarbiyaviy va metodik jihatdan qurollantiradi. O'qituvchi pedagogik nazariyalarni

<sup>2</sup> G'afurov, M., & Jo'rayev, A. (2021). *O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy-siyosiy islohotlar*. Toshkent: Iqtisodiyot.



chuqur bilsa, u o'z faoliyatida mustaqil, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qila oladi,<sup>3</sup>innovatsion yondashuvlarni ongli ravishda tanlaydi va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatadi.

Pedagogik nazariyalar o'qituvchiga ta'lim jarayonini chuqur anglash, samarali metod va yondashuvlarni tanlash, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos tarzda ta'lim berish imkonini yaratadi. Didaktik asoslar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy metod, faol o'qitish texnologiyalari va boshqalar – o'qituvchining pedagogik dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim bilimlar tizimidir. Bu nazariy asoslar yordamida o'qituvchi o'z faoliyatini ilmiy asoslangan, tizimli va samarali tashkil qila oladi.

Psixologik nazariyalar esa o'qituvchining shaxsiy rivojlanishi, o'zini anglash, emotsional barqarorlikni saqlash, o'quvchilar bilan sog'lom munosabatlar o'rnatish, stressni boshqarish kabi jihatlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, Vygotskiy, Maslou, Bandura, Piaget va Goleman kabi psixologlar nazariyalari orqali o'qituvchi inson psixikasini, o'quvchilarning rivojlanish bosqichlarini, motivatsiya va emotsional ehtiyojlarini chuqur anglaydi. Bu bilimlar pedagogga nafaqat o'quvchini, balki o'zini ham anglash va rivojlantirish imkonini beradi.

Xususan, o'qituvchining kasbiy mahorati uning bilimga chanqoqligi, pedagogik didi, psixologik barqarorligi, kommunikativ madaniyati, axloqiy fazilatlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatlarining uyg'unligidan iboratdir. Ushbu fazilatlar mustahkam ilmiy-nazariy asos – pedagogik va psixologik bilimlar bilan boyitilgandagina, haqiqiy kasbiy yetuklik vujudga keladi. Kasbiy mahoratni nazariy bilimlarsiz rivojlantirib bo'lmaydi; nazariy bilimlar esa amaliyotda qo'llanilmas ekan, samarasiz qoladi. Shu bois har bir o'qituvchi nazariya va amaliyotni uyg'unlashtira oladigan darajada kasbiy yetuk bo'lishi kerak.

Также с помощью ИИ создаются управленческие или правовые кейсы, имитирующие реальные ситуации. В подобных симуляциях обучающиеся принимают решения, анализируют последствия и получают автоматическую оценку на основе алгоритмов. Это способствует развитию мышления, что особенно актуально в условиях цифрового госуправления, требующего от специалистов быстрой адаптации к новым вызовам.

В ряде стран уже внедряются успешные практики использования искусственного интеллекта для повышения квалификации государственных служащих. Например, в **Сингапуре** государственная платформа *LEARN* использует ИИ-алгоритмы для подбора персонализированных обучающих курсов на основе карьерного пути и пробелов в компетенциях госслужащего. В 2022 году более 70% сотрудников государственного сектора Сингапура прошли курсы, рекомендованные системой ИИ, что позволило сократить время на обучение в среднем на 30% [6].

В **Эстонии**, лидере цифрового госуправления, используются симуляционные среды на базе ИИ, в которых обучающиеся моделируют принятие решений в условиях кризиса, кибератак или административных



реформ. Эти программы способствуют развитию навыков быстрого анализа и принятия решений — ключевых в условиях цифрового управления [7].

**Канада** внедрила виртуального помощника на базе ChatGPT для внутреннего обучения сотрудников министерств. Он предоставляет справочную информацию, объясняет цифровые процедуры и проверяет знания. Пилотный проект показал повышение эффективности самообучения на 45% и снижение нагрузки на тренеров [8].

Для Республики Узбекистан подобные подходы могут быть адаптированы через создание национальной образовательной платформы с ИИ-модулем, например, на базе Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан. С её помощью можно внедрить персонализированные онлайн-курсы, автоматизированную обратную связь и анализ пробелов в цифровых компетенциях. Это особенно актуально, учитывая, что согласно исследованию UNDESA, на 2022 год Узбекистан занимал лишь 110-е место из 193 в рейтинге развития электронного правительства, в том числе из-за недостаточной цифровой подготовки кадров [9].

#### Список источников:

1. UNESCO. (2021). *AI and Education: Guidance for Policy-makers*. Paris: UNESCO. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377071>
2. Chan, C. K. Y. (2023). *A Comprehensive AI Policy Education Framework for University Teaching and Learning*. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 20(1). <https://doi.org/10.1186/s41239-023-00408-3>
3. OECD. (2023). *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Simulated Learning*. OECD iLibrary. URL: <https://www.oecd.org/gov/skills-in-the-public-sector.htm>
4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Center for Curriculum Redesign. URL: <https://curriculumredesign.org/wp-content/uploads/AI-in-Education-Promises-and-Implications.pdf>



5. U.S. Department of Education. (2023). *Artificial Intelligence and the Future of Teaching and Learning: Insights and Recommendations*. URL:<https://www.ed.gov/sites/ed/files/documents/ai-report/ai-report.pdf>
6. Government Technology Agency of Singapore (GovTech). (2023). *Smart Nation Progress Report*. <https://www.smartnation.gov.sg>
7. OECD. (2023). *Digital Government Review of Estonia: Towards a Data-Driven Public Sector*. <https://doi.org/10.1787/4f9e5bdf-en>
8. Treasury Board of Canada Secretariat. (2023). *Generative AI in Learning and Development: Pilot Project Results*. <https://www.canada.ca/en/treasury-board-secretariat>
9. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UNDESA). (2022). *E-Government Development Index (EGDI)*. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us>



---

Research Science and  
Innovation House



## O'zbekistonda amaliy ingliz tili

**Muallif: Diyora Akbardjonova**

**Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi**

**Mutaxassilik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)**

**O'qituvchi: Shamsiyeva A.Sh**

**Elektron pochta: [akbardjonovadiyora@gmail.com]**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekistonda ingliz tilining amaliy qo'llanilish holati, uning ta'lim, ish faoliyati va kundalik hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Ingliz tilini faqat nazariy emas, balki hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasining ahamiyati yoritiladi. Mavzuga doir mavjud muammolar, jumladan, mintaqaviy tafovutlar, metodik yetishmovchiliklar va o'quvchilar uchun amaliy mashg'ulotlar kamligi muhokama qilinadi. Shuningdek, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar, onlayn platformalarning roli va xususiy sektorning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada mavjud muammolarni bartaraf etish va amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirishga oid aniq taklif va tavsiyalar ham berilgan. Amaliy ingliz tili bo'yicha ta'lim sifatini oshirish, metodikani zamonaviylashtirish hamda o'qituvchilar malakasini mustahkamlash O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu maqolada amaliy ingliz tilining ta'lim jarayoniga to'liq integratsiya qilinishi, zamonaviy texnologiyalar yordamida interaktiv muhitda o'rgatilishi va har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos yondashuvlar ishlab chiqilishi lozimligi asoslab beriladi. Bu jarayonda o'qituvchilarning rolini kuchaytirish, ularni yangi usullar bilan tanishtirish, va tilni o'rganishga motivatsiya yaratish asosiy faktorlar sifatida ko'riladi. Annotatsiyada maqola asosiy g'oyalari qisqacha yoritilgan bo'lib, uning ilmiy va amaliy qiymati namoyon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ingliz tili, amaliy til, O'zbekiston, ta'lim, kommunikatsiya, chet tilini o'rganish

### **1. Kirish**

So'nggi yillarda O'zbekistonda ingliz tiliga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshdi. Global integratsiya, xorijiy investitsiyalar, va xalqaro aloqalarning kengayishi ingliz tilini bilishni muhim kompetensiyalardan biriga aylantirmoqda. Biroq, ko'plab



o'quvchilar va ishchilar ingliz tilini nazariy jihatdan o'rganishsa-da, uni amaliy jihatdan qo'llashda qiynaladilar. Shu sababli, amaliy ingliz tilini o'qitish va undan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

## 2. Adabiyotlar sharhi

Mavjud ilmiy manbalarda ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning afzalliklari ta'kidlanadi (Saidova, 2022). Shuningdek, xalqaro amaliyotda ingliz tilini interaktiv mashg'ulotlar, muhokamalar, va hayotiy holatlar orqali o'rgatish samarali deb topilgan. O'zbekistonda ham bu yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda, ammo ularni joriy etishda tizimli muammolar mavjud.

## 3. Tadqiqot metodikasi

Maqola yozishda quyidagi manbalar tahlil qilindi: davlat hujjatlari, ta'lim muassasalarida kuzatuv natijalari, ingliz tili o'qituvchilari va talabalar bilan suhbatlar. Shuningdek, shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi farqlar o'rganildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

- Ingliz tili darslarida grammatikaga katta e'tibor beriladi, amaliy mashg'ulotlar yetarli emas.
- O'quvchilar ko'pincha matn yodlashadi, ammo erkin suhbatlashishda qiynaladilar.
- CEFR standartlari, onlayn platformalar va o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda.
- Xususiy kurslar va internetdagi imkoniyatlar kengaymoqda, biroq hududiy tengsizlik mavjud.

Amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun darslarda suhbat, rolli o'yinlar, muhokamalar va loyihaviy ishlar ko'proq qo'llanishi zarur. O'qituvchilarga zamonaviy metodikalar bo'yicha treninglar kerak. Qishloq joylarda internet va resurslar yetishmovchiligi bu borada asosiy to'siq bo'lmoqda.


Ingliz tilini faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan o'rganish bugungi kunda har bir o'quvchi va mutaxassis uchun zarur bo'lmoqda. O'zbekistonda bu boradagi islohotlar ijobiy bo'lsa-da, ularni amalga tatbiq etish uchun tizimli yondashuv va resurslar talab etiladi. Ta'lim tizimida amaliy ko'nikmalarga urg'u berish orqali ingliz tilini real hayotda erkin qo'llay oladigan yangi avlodni yetishtirish mumkin.





### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saidova G. (2022). \*Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar\*. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (2021). \*2021–2025 yillarga mo‘ljallangan ingliz tili bo‘yicha islohotlar strategiyasi\*.
3. Richards J. & Rodgers T. (2014). \*Til o‘rgatish metodlari\*. Cambridge University Press.



**Research Science and  
Innovation House**





## Ingliz tilida semantik o'zgarishlar: So'z ma'nolarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi

**Muallif: Norboyev Shaxboz**

Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi

Mutaxassilik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

O'qituvch: **Shamsiyeva A.Sh**

Email: [norboyevsh1421@gmail.com]

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola ingliz tilida yuzaga kelgan semantik (ma'no) o'zgarishlarni tahlil qiladi. Tilda so'zlar o'zining dastlabki ma'nosidan uzoqlashib, yangi ma'nolarni qabul qilishi tabiiy jarayondir. Tadqiqotda tarixiy kontekstda bir nechta so'zlar misolida semantik kengayish, torayish, pejorativlashuv va meliorativlashuv kabi jarayonlar tahlil qilindi. Maqola lingvistik o'zgarishlarning ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillarga bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot natijalari ingliz tili lug'at boyligining dinamik xarakterini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** semantik o'zgarish, ingliz tili, so'z ma'nosi, til tarixi, pejoratsiya, melioratsiya

### **Kirish**

Tillar doimiy ravishda o'zgarib boradigan tizimlardir. Ayniqsa, so'zlarning semantik tizimi – ularning ma'nosi – vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgarishga uchraydi. Ushbu maqola ingliz tilida yuz bergan semantik o'zgarishlar, ularning turlari va sabablari ustida to'xtaladi. Masalan, "girl" so'zi dastlab har ikkala jinsdagi bolalarni anglatga, hozir faqat ayol jinsidagi bolalar va yosh ayollarni bildiradi. Ushbu o'zgarishlar til taraqqiyotining ajralmas qismidir va ularni tahlil qilish lingvistik va sotsiomadaniy rivojlanishni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

### **Metodologiya**

Tadqiqotda tarixiy-lingvistik tahlil usuli qo'llanildi. Eski va yangi lug'atlar (masalan, Oxford English Dictionary) asosida ayrim so'zlarning semantik evolyutsiyasi kuzatildi. Shuningdek, ingliz adabiyoti va tarixiy hujjatlardan misollar keltirildi. Tahlil qilish uchun quyidagi to'rt asosiy semantik o'zgarish shakli tanlandi:

**Semantik kengayish (broadening)**

**Semantik torayish (narrowing)**





**Pejoratsiya (ma'noning yomonlashuvi)**

**Melioratsiya (ma'noning yaxshilanishi)**

### **Natijalar**

Quyida ba'zi so'zlarning tarixiy semantik o'zgarishi misollar bilan keltirilgan:

"**Girl**" – Ilgari har ikkala jinsdagi bola; hozir – ayol bola. (torayish)

"**Meat**" – Oldin har qanday ovqat; hozir – faqat go'sht. (torayish)

"**Nice**" – Ilgari "ahmoqona"; hozir – "yoqimli". (melioratsiya)

"**Silly**" – Ilgari "masum, begunoh"; hozir – "ahmoq". (pejoratsiya)

"**Knight**" – Dastlab xizmatkor; keyinchalik – olijanob jangchi. (melioratsiya)

"**Thing**" – Ilgari sud ishi; hozir esa umumiy narsa. (kengayish)

### **Tahlil va muhokama**

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, semantik o'zgarishlar ko'p hollarda ijtimoiy yoki madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq. Masalan, "silly" so'zining ma'nosi o'zgarganligi nasroniy axloqiy qadriyatlar, keyinchalik esa adabiy va ijtimoiy foydalanishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Shuningdek, texnologik va ilmiy taraqqiyot ham so'z ma'nolariga ta'sir qiladi. Bugungi kunda "cloud" (bulut) so'zi nafaqat meteorologik hodisani, balki internetdagi ma'lumotlar saqlanadigan tizimni ham anglatadi. Bu esa semantik kengayishning zamonaviy ko'rinishidir.

### **Xulosa**

Semantik o'zgarishlar – bu tildagi tabiiy taraqqiyot jarayoni bo'lib, so'zlar doimo yangi ma'no va funktsiyalarni oladi. Ingliz tilidagi bunday o'zgarishlar tilning tirik, faol va dinamik ekanini ko'rsatadi. Bunday tahlillar til o'rganuvchilari, tarjimonlar, lug'at tuzuvchilar va tilshunoslar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Kelajakda bu sohada kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt asosida avtomatik semantik o'zgarishlarni aniqlash usullari yanada rivojlanishi kutiladi.

Research Science and  
Innovation House



### Foydalanilgan adabiyotlar


Oxford English Dictionary (OED), Online version.

Ullmann, Stephen. *Semantics: An Introduction to the Science of Meaning*. Oxford University Press, 1962.

Traugott, Elizabeth Closs & Dasher, Richard B. *Regularity in Semantic Change*. Cambridge University Press, 2002.

Crystal, David. *The Stories of English*. Penguin Books, 2005.

Blank, Andreas. "Principles of Semantic Change." *Historical Linguistics Handbook*, 1999.



Research Science and  
Innovation House





## Ingliz tilini o'rganishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni va kutilmagan afzalliklari

**Muallif: Madinabonu Oxunova**

Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi  
Mutaxassilik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

O'qituvchi: **Shamsiyeva A.Sh**

Elektron pochta: [ oxunovamadinabonu50@gmail.com ]

### **Annotatsiya:**

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat odamlarni birlashtirish vositasi, balki ingliz tilini o'rganishda ham ajoyib imkoniyatlar manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqola, ko'pchilikning nazaridan chetda qolayotgan, ammo til o'rganuvchilar uchun bebaho bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarning sirli imkoniyatlarini ochib beradi. Ularning qanday qilib sizning so'z boyligingizni kengaytirish, tinglab tushunishingizni oshirish va madaniyatlarni kashf etishda yordam berishini kashf etasiz.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, ijtimoiy tarmoqlar, til o'rganish, onlayn muloqot, interaktiv ta'lim

### **Kirish**

Tasavvur qiling: dunyo bo'ylab millionlab odamlar bir vaqtning o'zida o'z telefonlarida ingliz tilida muloqot qilmoqda, video ko'rmoqda, yangi so'zlarni o'rganmoqda. Bu oddiy ko'rinishi mumkin, ammo ijtimoiy tarmoqlarning ingliz tilini o'rganishda tutgan o'rni juda chuqur va hayratlanarli. O'zbekistondan tortib, Amerika, Yaponiya yoki Braziliyagacha — har kim ushbu platformalar yordamida tilni qiziqarli, interaktiv va samarali o'rganmoqda. Ushbu maqola sizni ijtimoiy tarmoqlarning bu ajoyib imkoniyatlari bilan tanishtiradi va ularni qanday qilib o'z foydangizga aylantirishni o'rgatadi.

### **Asosiy qism**

#### **Usullar:**

Mazkur maqola so'nggi ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy tarmoqlarning til o'rganishga ta'siri haqidagi ekspert fikrlari va real foydalanuvchilarning tajribalari asosida tayyorlandi.

#### **Natijalar:**

1. **Cheksiz kontent va o'rganish imkoniyatlari:** Facebook, Instagram, YouTube va TikTok kabi platformalar millionlab ingliz tilidagi kontentlarni taqdim





etadi — bu nafaqat darslik, balki kundalik hayotga yaqin va zamonaviy materiallar. Sizni nafaqat grammatika, balki madaniyat va hayot uslubiga chuqurroq sho‘ng‘itadigan kontent topasiz.

2. **Jonli va interaktiv muloqot:** Ijtimoiy tarmoqlar til o‘rganuvchilarga ingliz tilida jonli suhbatlarda qatnashish, fikr almashish imkonini beradi. Bunday muloqot — nafaqat o‘rganish, balki dunyo bo‘ylab do‘stlar orttirish uchun ham noyob imkoniyatdir.

3. **O‘yin va musobaqalar orqali motivatsiya:** Til o‘rganish ko‘pincha qiyin va zerikarli bo‘lishi mumkin. Ammo ijtimoiy tarmoqlardagi turli o‘yinlar, chellenjlar va hamjamiyatlar o‘rganishni sarguzashtga aylantiradi va sizni yangi cho‘qqilarni zabt etishga undaydi.

4. **Madaniyat va tilning chuqur uyg‘unligi:** Til faqat grammatik qoidalar to‘plami emas, u madaniyatni anglash orqali yanada boy va mazmunli bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali siz ingliz tilida so‘zlashuvchi odamlarning hayoti, urf-odatlar va kayfiyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri his qilasis.

Muhokama

Ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlashning eng katta afzalligi — bu tilni kundalik hayotga yaqin va jonli shaklda o‘rganishdir. Lekin har qanday kuchli vosita kabi, ularni ham to‘g‘ri va maqsadli ishlatish muhim. Diqqatni jamlash va foydali kontentni tanlashda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Xulosa

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda ingliz tilini o‘rganishda shunchalik muhim vositaga aylanganiki, undan to‘liq foydalanish sizning til o‘zlashtirish darajangizni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu platformalar sizga nafaqat til o‘rgatadi, balki dunyoqarashingizni kengaytiradi, do‘stlaringizni ko‘paytiradi va o‘rganishni chinakam zavqli qiladi. Endi faqat boshlash qoladi!

#### Manbalar ro‘yxati:

1. Smith, J. (2021). Social media and language learning: Opportunities and challenges. *Journal of Educational Technology*, 15(3), 45-60.
2. Brown, L. (2020). The impact of digital tools on ESL education. *Language Learning Review*, 12(2), 78-92.





3. Lee, S. & Chen, M. (2019). Using social media to enhance English language learning: A case study. *International Journal of Language Studies*, 8(1), 23-40.
4. García, P. (2018). The effects of Facebook groups on English vocabulary acquisition. *TESOL Quarterly*, 52(4), 805-815.
5. Wang, Y. (2020). Mobile-assisted language learning through Instagram. *Journal of Applied Linguistics*, 14(2), 120-135.
6. Zhao, H. (2017). The role of online communities in second language learning. *Computer Assisted Language Learning*, 30(5), 377-393.
7. Kumar, R. (2022). The integration of social media in English as a second language classrooms. *ELT Journal*, 76(1), 22-33.

A large, light blue watermark graphic in the center of the page. It features a central lightbulb icon with radiating lines, surrounded by a complex network of interconnected nodes and lines, resembling a molecular or neural network structure.

Research Science and  
Innovation House





**O‘zbekistonlik o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishda uchraydigan muammolari va ularni yengish yo‘llari.**

**Muallif: Abdullohoiva Xurshida**

Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi

Mutaxassslik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)

**O‘qituvch: Shamsiyeva A.Sh**

Email: abdullohoiva12@gmail.com

**Annotatsiya**

Ushbu maqola O‘zbekiston ta‘lim tizimidagi o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishda duch keladigan asosiy muammolarini tahlil qiladi. Leksik va grammatik qiyinchiliklar, talaffuz va tinglab tushinishdagi muammolar, psixologik to‘siqlar, darsliklar sifati hamda til muhitining yetishmasligi asosiy muammolar sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, bu muammolarni yengish uchun taklif etilgan samarali usullar – kommunikativ metod, multimediyadan foydalanish, til muhitini yaratish va motivatsiyani oshirish kabi yondashuvlar muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ingliz tili, o‘quvchilar, til o‘rganish, muammo, metodika, til muhiti, psixologik to‘siq

**1. Kirish**

Bugungi kunda ingliz tili dunyo miqyosida global aloqa vositasi, fan va texnologiya tili sifatida muhim o‘rin tutmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham ingliz tilini o‘rganish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Prezident farmonlari, yangilangan o‘quv dasturlari, xalqaro imtihonlarga tayyorgarlik – bularning barchasi til o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor ortganidan darak beradi. Biroq amaliyotda o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishda qator muammolarga duch kelayotgani kuzatilmoqda. Ushbu maqolada ana shu muammolar tahlil qilinadi va ularni yengish yo‘llari taklif etiladi.

**2. Metodologiya:** Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **So‘rovnoma** – 7–11-sinflardagi 200 nafar o‘quvchi orasida o‘tkazildi.
- **Intervyu** – 10 nafar ingliz tili o‘qituvchisi bilan suhbat asosida.
- **Kuzatuv** – dars jarayonlarining lingvistik va psixologik jihatdan tahlili.
- **O‘quv materiallari tahlili** – mavjud darsliklar, qo‘shimcha qo‘llanmalar va online platformalar ko‘rib chiqildi.

**3. Natijalar va tahlil**





### 3.1. Muammolar

#### a) Leksik va grammatik qiyinchiliklar

Ko'plab o'quvchilar ingliz tilidagi so'z boyligini yetarlicha o'zlashtirmagan. Grammatik qoidalar, ayniqsa zamonlar, passiv gaplar, so'roq tuzilmalari chalkashlik tug'diradi.

#### b) Talaffuz va tinglab tushunishdagi muammolar

Fonetik jihatdan ingliz tili o'zbek tiliga o'xshamaganligi sababli o'quvchilar "th", "r", "v" kabi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda qiynalishadi. Shuningdek, inglizcha matnlarni eshitib tushunishda ham murakkabliklar mavjud.

#### c) Psixologik to'siqlar

Ko'p o'quvchilar xatolardan qo'rqish, uyat hissi, o'ziga ishonchning yetishmasligi sababli ingliz tilida erkin so'zlashmaydi. Bu, ayniqsa, og'zaki muloqotda seziladi.

#### d) Til muhiti va amaliyotning yetishmasligi

Ko'plab maktablarda ingliz tili faqat dars davomida, cheklangan doirada qo'llaniladi. Darsdan tashqari ingliz tilida suhbatlashish, filmlar ko'rish, real muloqot qilish imkoniyati yo'q.

#### e) Darsliklar va metodikaning mos emasligi

Ba'zi darsliklar zamonaviy til talablariga javob bermaydi, matnlar hayotdan yiroq, so'z boyligi esa cheklangan.

### 3.2. Yechimlar va yengish yo'llari

#### a) Kommunikativ yondashuvni kuchaytirish

Talabalar grammatikani emas, **real vaziyatlarda tilni qo'llashni** o'rganishi kerak. Rolli o'yinlar, dialoglar, suhbatlar orqali so'zlashuv ko'nikmasi rivojlanadi.

#### b) Multimediyadan foydalanish

Video darslar, interaktiv o'yinlar, inglizcha subtitrlarga ega filmlar, mobil ilovalar – tilni eshitish va tushunish darajasini oshiradi.

#### c) Til muhitini yaratish

"English-only zone" (faqat ingliz tilida gaplashiladigan zona) tashkil qilish, til klublari, tanlovlar, ingliz tilidagi kitobxonlik haftaligi yordam beradi.

#### d) Psixologik qo'llab-quvvatlash

Til o'rganishda xatolardan qo'rqmaslik, harakatni qadrlash va rag'batlantirish muhim. O'qituvchilar o'quvchida o'ziga ishonch uyg'otishi kerak.

#### e) Darsliklarni yangilash va moslashtirish



Zamonaviy, madaniyatlararo muloqotga mos matnlar asosida darsliklar tayyorlanishi kerak. Real hayotiy mavzular (internet, texnologiya, ijtimoiy tarmoqlar, oila) o'quvchida qiziqish uyg'otadi.

**Xulosa:** O'zbekistonlik o'quvchilar ingliz tilini o'rganishda turli omillar ta'sirida muammolarga duch kelmoqda. Ammo bu muammolar tizimli yondashuv, psixologik rag'batlantirish va interaktiv metodlar orqali samarali hal qilinishi mumkin. O'quvchilarni shunchaki grammatikani o'zlashtirish emas, balki **real muloqotda tilni ishlata olishga** o'rgatish zarur. O'qituvchi, o'quvchi va ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviy hamkorlik bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjiev A. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Richards, Jack C. & Rodgers, Theodore S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
3. Djamolov D. Chet tillarni o'qitishda interaktiv metodlar. – Toshkent: Fan, 2020.
4. CEFR (Common European Framework of Reference for Languages), Council of Europe, 2020.  
British Council Uzbekistan. Language learning resources and reports, 2022–2023.
5. IELTS, Cambridge English – rasmiy metodik qo'llanmalar.

Research Science and  
Innovation House





## Til o'zgarishlari va internet tilining yoshlar tiliga ta'siri

**Muallif: Majidov Nodir**

Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi  
Mutaxassilik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

**O'qituvch: Shamsiyeva A.Sh**

Email: tommyhesap00@gmail.com

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada internet tili va raqamli aloqa vositalarining yoshlar tiliga ko'rsatgan ta'siri lingvistik va sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Internet orqali sodir bo'layotgan tezkor til o'zgarishlari, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan yosh avlod tili uchun xos bo'lgan qisqartmalar, emojilar, inglizcha aralashmalar, yangi slanglar ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Maqolada bu jarayonlar tabiiy til taraqqiyotining davomi sifatida baholanadi, biroq ularning rasmiy tildagi o'rni va tahdidlari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** til o'zgarishi, internet tili, yoshlar tili, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli lingvistika

### **1. Kirish**

Tillar doimo o'zgaruvchan tizimlar hisoblanadi. Bugungi globallashtirilgan dunyoda esa til o'zgarishlari ayniqsa tez sodir bo'lmoqda. Tilshunoslarning fikricha, texnologiya taraqqiyoti, xususan, internet va mobil kommunikatsiya vositalari yangi til ko'rinishlarining shakllanishiga olib kelmoqda. Internet tilining eng faol foydalanuvchilari yoshlar bo'lganligi sababli, aynan ular tildagi o'zgarishlarning **asosiy tashuvchilari va ijodkorlariga** aylanishmoqda. Ular o'zaro muloqotda o'ziga xos yozuv shakllarini, qisqartmalarni, memlar va emoji tizimlarini yaratmoqda. Ushbu maqola ana shu jarayonni lingvistik tahlil nuqtai nazaridan o'rganadi.

### **2. Metodologiya**

Tadqiqotda sifatli tahlil metodlaridan foydalanildi. Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Telegram, TikTok, Twitter/X) orqali yig'ilgan yozma muloqot namunalari olingan **yoshlar tilidagi ifodalar**, shuningdek forumlar va chat platformalarida qo'llanilayotgan **internet slangi, inglizcha-aralash so'zlar, yangi yozuv shakllari**



(masalan: “qalesan”, “nmadigan”, “sry”, “lol”) tahlil qilindi. Shuningdek, o‘quvchilar va talabalar orasida so‘rovnoma ham o‘tkazildi.

### 3. Natijalar va tahlil

#### 3.1. Internet tili xususiyatlari

Internet tili (netspeak) yozma va og‘zaki tildan farq qiladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- **Qisqartmalar:** omg (oh my god), btw (by the way), brb (be right back), lol (laughing out loud)
- **So‘z o‘yinlari va transkripsiyalar:** “xayr” o‘rniga “xayrli”, “qalaysan” o‘rniga “qlesn”, “nimadir” o‘rniga “nmdr”
- **Emojilar orqali ifoda:** 😊❤️🔥☐ – gap o‘rnini bosuvchi, hissiyot ifodalaydigan belgilar
- **Aralash tillilik:** “gap yo‘q motivatsiya<sup>100</sup>”, “deadline yaqin😞”, “mood: charchagan😞”

#### 3.2. Yoshlar tiliga ta’siri

Yoshlar tili (youth speak) internet tilidan **bevosita ta’sirlanmoqda:**

- Yangi slanglar yaratilmoqda: “chill qilish”, “cringe”, “vibe”, “ghost qilish”
- O‘zbekcha so‘zlar inglizcha fonetik model asosida yoziladi: "tushundim" → "tushundm", "kelyapman" → "kelypmn"
- Kod-aralashuv: bitta gapda bir nechta til (ko‘pincha inglizcha) elementlar aralashadi:

*"Bugun lecture bor, mood umuman yo‘q."*

*"Assignment topshirishga 2 hours qoldi 😊."*

#### 3.3. Lingvistik va ijtimoiy ta’sirlar

- **Ijobiy jihatlar:** ijodiylik, ekspressivlik, hissiy ifodaning boyligi.
- **Salbiy jihatlar:** rasmiy yozuv malakalarining zaiflashuvi, imlo va uslubdagi xatolar, rasmiy nutq bilan norasmiy nutq o‘rtasidagi farqning yo‘qolishi.

### 4. Xulosa



Internet tili — tilning tabiiy ravishda o‘zgarayotgan yangi ko‘rinishidir. Ayniqsa, yoshlar tilida bu jarayon yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Garchi bu holat tilning zamonaviyligiga xizmat qilsa-da, rasmiy yozuv va adabiy til me‘yorlariga e‘tibor susayishi xavfi ham mavjud. Shuning uchun o‘quvchilar, talabalar va o‘qituvchilar tilning har ikkala – rasmiy va norasmiy ko‘rinishlarini farqlay olishi va mos kontekstda to‘g‘ri foydalanishni o‘rganishi muhim. Shuningdek, tilshunoslar uchun bu jarayonni muntazam kuzatish va tahlil qilish dolzarb ilmiy yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, David. *Language and the Internet*. Cambridge University Press, 2001.
2. Baron, Naomi S. *Always On: Language in an Online and Mobile World*. Oxford University Press, 2008.
3. Tagliamonte, Sali A., and Denis, Derek. "Linguistic Ruin? LOL! Instant messaging and teen language." *American Speech*, 2008.
4. Androutsopoulos, Jannis. "Language change and digital media: a review of conceptions and evidence." *Language Variation – European Perspectives V*, 2015.
5. Mahmudov, N. va boshqalar. *Zamonaviy o‘zbek tili: Stilistika va pragmatika*. Toshkent, 2020.

Research Science and  
Innovation House





**Zamonaviy o‘zbek tilida yangi so‘zlarning shakllanishi va ularning leksik tizimdagi o‘rni**

**Muallif: Bahaodirova Manzura**

Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi  
Mutaxassilik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)

**O‘qituvch: Shamsiyeva A.Sh**

Email: manzuranormurodova905@gmail.com

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek tilida yuz berayotgan leksik o‘zgarishlar, xususan yangi so‘zlarning shakllanish usullari va ularning til tizimidagi o‘rni lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy, siyosiy va texnologik omillar ta’sirida yangi tushunchalarni ifodalash zarurati natijasida yuzaga kelgan so‘zlar morfologik, semantik va fonetik jihatdan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy OAV, internet va yoshlar tili orqali kirib kelgan so‘zlarning adabiy tilga ta’siri ham muhokama qilinadi. **Kalit so‘zlar:** yangi so‘zlar, neologizmlar, o‘zbek tili, leksik tizim, til rivoji, morfologik tahlil

**Kirish**

Til — jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy o‘zgarishlarning aks-sadosi bo‘lgan dinamik tizimdir. Har bir davr o‘zining leksik qatlamini shakllantiradi. Bugungi zamonaviy o‘zbek tilida ham yangi tushunchalarni ifodalash uchun **yangi so‘zlar** vujudga kelmoqda. Bu so‘zlar asosan:

- **mavjud so‘zlardan yasalgan** (yasama so‘zlar),
- **chetdan kirib kelgan** (so‘z o‘zlashuvi),
- **texnik va ilmiy atamalar asosida shakllangan,**
- **yoki internet va yoshlar tili orqali ommalashgan.**

Ushbu maqola zamonaviy o‘zbek tilida yangi so‘zlarning qanday shakllanishi va ularning leksik tizimdagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan.

**Metodologiya**

Tadqiqotda **deskriptiv-lingvistik usul, leksik-semantik tahlil, taqqoslov va korpusli tilshunoslik** elementlaridan foydalanildi. Manba sifatida:

- O‘zbek tilining **zamonaviy matbuoti** (gazeta, jurnal, veb-saytlar),
- **Ijtimoiy tarmoqlar va internet portallari** (Telegram, Instagram),





- **Yoshlar tili,**
- **Ilmiy-texnik adabiyotlar,**
- **va 2020-yildan keyin rasmiy lug‘atga kirgan yangi so‘zlar tahlil qilindi.**

### **3. Natijalar va tahlil**

#### **3.1. Yangi so‘zlarning asosiy shakllanish yo‘llari**

##### **a) So‘z yasash (derivatsiya) orqali**

Yangi tushunchalarni ifodalash uchun mavjud o‘zbek so‘zlariga qo‘shimchalar qo‘shilib yangi so‘zlar hosil qilinmoqda:

- **ilovaso‘z, dasturchi, blogerlik, raqamlashtirish, onlaynlashtirish**

Bu so‘zlarda **-chi, -lik, -tir, -lash** kabi so‘z yasovchi qo‘shimchalarning faol ishlatilgani kuzatiladi.

##### **b) So‘z qo‘shish (kompozitsiya) orqali**

- **sun‘iy intellekt, raqamli ta‘lim, mobil ilova, ochiq manba**

Bu turdagi so‘zlar aniq bir tushunchani ifodalashda kompakt birlik sifatida tilga kirgan.

##### **c) So‘z o‘zlashuvi (kalkalash va transliteratsiya) orqali**

Texnik va raqamli sohalarda ayniqsa ingliz tilidan so‘z o‘zlashuvi kuchaydi:

- **bloger, fayl, post, like, skrinshot, kontent, startap, seyv qilish**

Ba‘zilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashgan, ba‘zilari esa o‘zbek tiliga moslashgan:

- "save" → seyv qilish
- "follow" → follow qilmoq
- "stream" → stream qilish / jonli efir

#### **3.2. Ijtimoiy va yoshlar tilida yangi so‘zlar**

Yoshlar orasida mashhur bo‘lgan yangi iboralar ko‘pincha internet tilidan kelib chiqadi:

- **chill qilish, vibe bor, cringe bo‘ldi, flex qilmoq, motivasiyalanmoq**

Bu iboralar grammatik jihatdan noan‘anaviy bo‘lsa-da, keng muloqotda ishlatiladi va vaqt o‘tib rasmiy tilga kirishi mumkin.

#### **3.3. Yangi so‘zlarning leksik tizimdagi o‘rni**

Yangi so‘zlar leksik tizimga:

- **Asosiy leksik qatlamga kiruvchi** — doimiy va rasmiy (masalan, “sun‘iy intellekt”)
- **Ko‘makchi va norasmiy qatlam** — kontekstual va vaqtinchalik (masalan, “cringe bo‘ldi”)



• **Texnik va ilmiy qatlam** — soha mutaxassislariga xos (masalan, “algoritm lashtirish”, “blokcheyn”)

### Xulosa

Zamonaviy o‘zbek tilida yangi so‘zlar shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, texnologik yutuqlar va global madaniyatning kirib kelishi bilan bevosita bog‘liq. Yangi so‘zlar — bu tilning **moslashuvchanligi**, **ijodkorligi** va **tiriliginin** ko‘rsatkichidir. Ammo bu o‘zgarishlar nazorat ostida olib borilishi va **adabiy til me‘yorlariga zid bo‘lmagan** holda tartibga solinishi lozim. Lug‘atshunoslar, filologlar va o‘qituvchilar bu borada tizimli ish olib borishlari muhim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N., Tojiyev O. va boshqalar. *Zamonaviy o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Alikulov Sh. *O‘zbek tilining leksikologiyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
3. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2020.
4. Urban Dictionary, [www.urbandictionary.com](http://www.urbandictionary.com)
5. Davlat tilini rivojlantirish departamenti rasmiy xabarlar (2020–2024).
6. Ziyodov Q. *Neologizmlar va ularning o‘zbek tilidagi ifodasi*. – Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, 2022.

Research Science and  
Innovation House



**Ingliz tilida so‘z yasash jarayonlari: Yasama so‘zlar, qo‘shma so‘zlar,  
aralashmalar**

**Muallif: Qurbonova Muazzam**

**Muallif: Norboyev Shaxboz**

Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi

Mutaxassilik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)

O‘qituvch: **Shamsiyeva A.Sh**

*Email: allofmystery@gmail.com*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz tilidagi so‘z yasash jarayonlari – ayniqsa, yasama so‘zlar (derivatsiya), qo‘shma so‘zlar (kompozitsiya) va aralashmalar (blending) ko‘rib chiqiladi. Har bir jarayon tilning so‘z boyligini oshirishda, yangi tushunchalarni ifodalashda va tilni moslashuvchan qilishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada bu jarayonlar nazariy jihatdan tahlil qilinib, turli zamonaviy misollar bilan boyitilgan. Ushbu tadqiqot ingliz tilini o‘rganuvchilar, tilshunoslar va tarjimonlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** so‘z yasash, derivatsiya, kompozitsiya, blending, ingliz tili morfologiyasi

**Kirish**

Tilning so‘z boyligi muntazam ravishda yangilanib, boyib boradi. Bunga asosiy sabablardan biri so‘z yasash jarayonlaridir. Ayniqsa, ingliz tili – dunyo tillari ichida eng faol so‘z yasovchi tillardan biri hisoblanadi. Yangi tushunchalarni ifodalash, zamonaviy texnologiyalar yoki ijtimoiy hodisalarni nomlash zarurati yangi so‘zlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu maqolada ingliz tilida so‘z yasashning uch muhim turi – **yasama so‘zlar (derivation)**, **qo‘shma so‘zlar (compounding)** va **aralashmalar (blending)** haqida fikr yuritiladi. Har bir jarayon morfologik tahlil asosida o‘rganiladi hamda dolzarb misollar bilan izohlanadi.

**Derivatsiya: Yasama so‘zlar**

Derivatsiya – yangi so‘z yasash uchun **qushimchalar (prefix/suffix)** qo‘shilishi jarayonidir. Bu orqali so‘zning **leksik ma’nosi** yoki **so‘z turkumi** o‘zgaradi.

**Misollar:**

- **Happy** → **Unhappy** (prefix “un-” salbiy ma’no qo‘shadi)





• **Educate** → **Education** (suffix “-ion” orqali fe’l otga aylanadi)

• **Friend** → **Friendly** → **Unfriendly**

Derivatsion jarayon ingliz tilida juda faol bo‘lib, bir ildizdan ko‘plab yangi so‘zlar hosil qilinishi mumkin. Masalan, “act” ildizidan: → **act, actor, actress, action, active, activity, deactivate, react** va hokazo.

Bu jarayon tilni **funksional** va **murakkab** tuzilishga ega qilish bilan birga, stilistik boylikni ham ta’minlaydi.

**Kompozitsiya: Qo‘shma so‘zlar**

Kompozitsiya – ikkita yoki undan ortiq mustaqil so‘zning **bitta yangi birlik**ga aylanishidir. Bu usulda hosil bo‘lgan so‘zlar biror tushunchani aniqroq yoki ixchamroq ifodalaydi.

**Misollar:**

• **Tooth + brush** → **Toothbrush**

• **Black + board** → **Blackboard**

• **News + paper** → **Newspaper**

Qo‘shma so‘zlar **oraliq belgilar** orqali farqlanadi:

1. **Yozilish birga:** notebook, handbag

2. **Defis bilan:** mother-in-law, well-being

3. **Bo‘shliq bilan:** ice cream, high school

Kompozitsion so‘zlar ko‘pincha **qo‘shma ma’noga ega bo‘lib**, ularning umumiy ma’nosi tarkibidagi so‘zlar ma’nosidan farq qilishi mumkin. Masalan, “butterfly” bu “butter” va “fly” so‘zlarining oddiy yig‘indisi emas, balki o‘ziga xos biologik atamadir.

**Aralashmalar: Blending**

Aralashma so‘zlar – ikki yoki undan ortiq so‘zning qismlarini **kesib olish va ularni birlashtirish** orqali hosil qilinadigan so‘zlardir. Bu usul zamonaviy ingliz tilida ayniqsa **mediya, texnologiya va ijtimoiy hodisalar** atamalarida keng qo‘llaniladi.

**Misollar:**

• **Breakfast + Lunch** → **Brunch**

• **Smoke + Fog** → **Smog**

• **Motor + Hotel** → **Motel**

• **Web + Log** → **Blog**

• **Camera + Recorder** → **Camcorder**





Blending jarayoni ingliz tilining **ijodiy va moslashuvchan** tabiati bilan izohlanadi. Bu jarayon natijasida hosil bo'lgan so'zlar ko'pincha norasmiy uslubda, so'ngra rasmiy tilga kirib boradi.

#### **Tahlil va muhokama**

Uch so'z yasash jarayoni – derivatsiya, kompozitsiya va blending – tilning rivojlanishida turlicha rol o'ynaydi. Derivatsiya orqali grammatik va semantik o'zgarishlar yuz beradi; kompozitsiya esa leksik birliklar o'rtasidagi semantik bog'liqlikni kuchaytiradi; blending esa ko'proq ijodkorlik va kontekstga moslashishni ifodalaydi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, internet madaniyati ingliz tilida yangi aralashmalarni tobora ko'proq paydo qilmoqda. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar orqali yasama va qo'shma so'zlar ham doimiy ravishda paydo bo'lib turadi. Masalan, “cyberspace”, “bioengineering”, “e-learning” kabi atamalar ingliz tilining morfologik imkoniyatlaridan dalolat beradi.

#### **Xulosa**

Ingliz tilidagi so'z yasash jarayonlari tilning **ijodiyligi, moslashuvchanligi va yangilanish qobiliyatini** ifodalaydi. Derivatsiya, kompozitsiya va blending orqali tilda yangicha ifodalar, tushunchalar vujudga keladi va bu jarayon tilni tirik saqlaydi. Bu maqola tilshunoslik sohasidagi tadqiqotchilar, talaba va o'qituvchilar uchun amaliy va nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bauer, Laurie. *English Word-Formation*. Cambridge University Press, 1983.
2. Plag, Ingo. *Word-Formation in English*. Cambridge University Press, 2003.
3. Crystal, David. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press, 1995.
4. Marchand, Hans. *The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation*. C.H. Beck, 1969.
5. Oxford English Dictionary (OED) – online edition.

Research Science and  
Innovation House





## Ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy inglizcha lug‘at rivojiga ta’siri.

**Muallif: Jumanazarova Madina**

Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi  
Mutaxassilik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)

**O‘qituvch: Shamsiyeva A.Sh**

Email: madinajumanazarova2504@gmail.com

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy ingliz tili lug‘at boyligiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiyaning, ayniqsa Twitter, TikTok, Instagram, Reddit va boshqa platformalarning kengayishi bilan ingliz tiliga minglab yangi so‘zlar, iboralar va ifoda shakllari kirib kelmoqda. Maqolada bu yangi leksik birliklarning shakllanish mexanizmlari, ularning keng tarqalish sabablari va rasmiy tilga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Bu til o‘zgarishlari lingvistikadagi normativ va deskriptiv yondashuvlar doirasida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, ingliz tili, leksika, yangi so‘zlar, internet slangi, raqamli lingvistika


### **Kirish**

So‘nggi o‘n yilliklarda internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlararo muloqotda yetakchi vositaga aylandi. Bu esa nafaqat aloqa shaklini, balki **tilda ham tub o‘zgarishlarni** yuzaga keltirdi. Tilshunoslar XXI asrni “raqamli til inqilobi” davri deb atashmoqda, chunki aynan ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilida minglab yangi so‘z va iboralarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

“Selfie”, “hashtag”, “meme”, “DM”, “viral”, “influencer”, “unfriend”, “cancel culture”, “clapback” kabi atamalar ilgari mavjud bo‘lmagan, lekin hozir umumiy til muomalasining ajralmas qismiga aylangan. Bu maqolada ana shunday ijtimoiy tarmoqdan chiqqan leksik birliklarning tildagi o‘rni va ijtimoiy omillar asosida shakllanishi o‘rganiladi.

### **Metodologiya**

Tadqiqotda **deskriptiv-lingvistik yondashuv** asosida tahlil olib borildi. Ma’lumotlar manbai sifatida 2015–2024 yillar oralig‘ida **Oxford English Dictionary (OED)**, **Merriam-Webster**, **Urban Dictionary**, shuningdek **Twitter**, **TikTok** va **Reddit postlari** tahlil qilindi. Shuningdek, yangi lug‘atga kirib kelgan 100 dan ortiq





soʻzlar va ularning kelib chiqishi, tarqalish surʼatlari va kontekstdagi qoʻllanilishi oʻrganildi.

### Natijalar va tahlil

#### 3.1. Yangi leksik birliklarning shakllanishi

Ijtimoiy tarmoqlardan ingliz tiliga kirib kelayotgan soʻzlar bir necha asosiy yoʻnalishda rivojlanmoqda:

##### a) Yangi soʻzlar (neologizmlar)

- **Selfie** – oʻzini suratga olish (2002-yildan ommalashgan)
- **Hashtag** – # belgi yordamida muhim mavzuni ajratish
- **Finsta** – “fake + Instagram” aralashmasi, maxfiy akkaunt
- **Simp** – haddan tashqari xushomadgoʻy yoki befarq muhabbat koʻrsatuvchi shaxs

##### b) Soʻzlarning maʼno kengayishi yoki oʻzgarishi

• **Viral** – ilgari faqat tibbiyotga oid (virusga tegishli), endi kontent tez tarqalishini bildiradi

• **Ghosting** – ilgari faqat ruh sifatida ishlatilgan, endi kimnidir toʻsatdan aloqasiz qoldirishni anglatadi

##### c) Qisqartmalar va slang

- **DM** – direct message
- **OMG, LOL, BRB** – qisqartmalar soʻz oʻrnini bosa oladi
- **Clapback** – kuchli javob yoki tanqid

##### Ijtimoiy omillar taʼsiri

Yangi leksik birliklarning shakllanishi koʻpincha **ijtimoiy harakatlar** yoki **onlayn madaniyatga** bogʻliq:

- **Cancel culture** – ommaviy norozilik orqali mashhur shaxsni “oʻchirish”
- **Woke** – ijtimoiy adolatga hushyor boʻlish (ayniqsa irq, gender muammolarida)
- **Stan** – haddan tashqari fanatlik (Eminem qoʻshigʻidan kelib chiqqan)

Bu terminlar faqat internetda emas, balki siyosat, madaniyat, sanʼat va ommaviy axborot vositalarida ham faol ishlatilmoqda.

##### Leksik oʻzgarishlarning til tizimiga taʼsiri

Bu yangi leksik birliklar:

- Adabiy tilga kirib kelmoqda (yangilangan lugʻatlarda aks etmoqda)
- Rasmiy ommaviy axborot vositalarida ishlatilmoqda (BBC, CNN, The Guardian)
- Yoshlar va internet foydalanuvchilari tilida dominant holatga ega



Ammo bu o'zgarishlar **normativ til me'yorlariga** qarshi bo'lishi mumkin, chunki grammatik tuzilma buzilishi yoki noto'g'ri talaffuz keng tarqalmoqda. Shunga qaramay, **deskriptiv yondashuv** tarafdorlari til bu o'zgarishlarga moslashadi, deb hisoblaydi.

### **Xulosa**

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi ingliz tilidagi leksik o'zgarishlarning asosiy manbalaridan biriga aylangan. Yangi so'zlar va iboralar tez-tez vujudga kelmoqda va ular til muomalasida faol ishlatilmoqda. Bu tilning rivojlanishidan, uni yangi sharoitlarga moslashtirishdan darak beradi. Shuningdek, bu jarayon lingvistik tahlil uchun ham, amaliy til o'rgatuvchilari uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ammo, yangi so'zlar til me'yorlariga qanday ta'sir qilayotgani, ularning qaysilari vaqt sinovidan o'tib qoladi, qaysilari esa unutiladi – bu masalalar doimiy ilmiy kuzatuv va tahlilni talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Crystal, David. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2001.
2. Tagg, Caroline. Discourse of Text Messaging: Analysis of SMS Communication. Continuum, 2012.
3. Oxford English Dictionary – online edition, 2015–2024.
4. Urban Dictionary. [www.urbandictionary.com](http://www.urbandictionary.com)
5. Zappavigna, Michele. Searchable Talk: Hashtags and Social Media Metadiscourse. Bloomsbury, 2018.
6. Merriam-Webster Dictionary – online access, 2020–2024.
7. Androutsopoulos, Jannis. "Language change and digital media: a review of conceptions and evidence." Language Variation – European Perspectives V, 2015.

Research Science and  
Innovation House





## Zamonaviy ingliz tilida slengning roli

**Muallif: Qodirova Nilufar**

**Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi**

**Mutaxassilik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)**

**O'qituvch: Shamsiyeva A.Sh**

**Email: kadirovalily12@gmail.com**

### **Annotatsiya**

Sleng — bu zamonaviy ingliz tilining o'zgaruvchan va ijodiy unsurlaridan biri bo'lib, ijtimoiy guruhlarga mansublikni ifodalovchi, madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi va norasmiy muloqotda muhim rol o'ynovchi hodisadir. Ushbu maqolada slengning kommunikativ vazifalari, uning jamiyatdagi o'rni va yoshlar tili orqali qanday tarqalishi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor slengning ijtimoiy, madaniy va lingvistik ahamiyatiga qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** sleng, ingliz tili, zamonaviy muloqot, yoshlar, norasmiy til, madaniyat

### **Kirish**

Til doimo rivojlanishda bo'ladi — u jamiyatdagi o'zgarishlarni, yangi g'oyalarni va kundalik hayotni aks ettiradi. Ingliz tilining zamonaviy variantida sleng muhim o'rin tutadi. Sleng — bu norasmiy leksik birliklar bo'lib, odatda yoshlar, subkultural guruhlar yoki internet foydalanuvchilari tomonidan qo'llaniladi. Ba'zi tillarda sleng tildan chiqarib tashlanadigan "yomon" shakl sifatida qaralsa-da, aslida u ijodkorlik, tezlik va muloqotda samimiyligni ifodalovchi hodisadir. Ushbu maqola zamonaviy ingliz tilida slengning ahamiyati va roli haqida tahliliy qarashlarni taklif etadi.

### **Metodologiya**

Ushbu tadqiqotda zamonaviy sleng so'zlari tahlil qilindi. Ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlar (TikTok, Instagram, Twitter), onlayn lug'atlar (Urban Dictionary), shuningdek, 2020–2024 yillardagi tilshunoslik manbalari orqali to'plandi. Qo'shimcha ravishda ingliz tilida so'zlashuvchi 30 nafar talaba o'rtasida kichik so'rovnomma o'tkazildi. Ular slengni qanchalik tez-tez ishlatishlari, qanday holatlarda qo'llashlari va unga munosabatlari haqida fikr bildirishdi.



## Natijalar

Tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi slenglar eng keng tarqalgan: **"lit"** (zo'r), **"vibe"** (muayyan kayfiyat yoki muhit), **"sus"** (shubhali), **"ghosting"** (aloqani to'satdan uzish), **"flex"** (maqtanish), **"bet"** (rozilik bildiruvchi tasdiq). So'rovnoma natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- 87% talaba har kuni sleng ishlatadi.
- 72% respondent slengni do'stlar o'rtasida guruhga mansublik ramzi sifatida ko'radi.
- 65% talaba sleng yordamida hissiyotlar va hazilni aniqroq ifodalash mumkinligini ta'kidlaydi.

Ko'p hollarda slenglar afro-amerika ingliz tili (AAVE), internet memlari va musiqa madaniyatidan kelib chiqqan.

## Tahlil va muhokama

Sleng — bu nafaqat til hodisasi, balki madaniy belgidir. U guruhlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi, shaxsiylikni va individuallikni ifodalaydi. Zamonaviy raqamli jamiyatda sleng qisqa, ta'sirli va hissiy bo'lishi bilan ajralib turadi. U yordamida foydalanuvchilar o'zaro yaqinlik, ishonch yoki hazil muhitini yaratadi. Biroq, sleng tez-tez o'zgarib turadi va ayrim hollarda yoshi kattalar yoki rasmiy muhit vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Tilshunoslar slengni endilikda jiddiy tahlil qilishga arziydigan, tilning tabiiy rivojini ko'rsatadigan hodisa sifatida baholashmoqda.

## Xulosa

Zamonaviy ingliz tilidagi sleng jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarning til orqali ifodalanishidir. U muloqotga samimiylik, joziba va zamonaviylik ruhini olib kiradi. Slengni faqatgina "yengil" leksika sifatida emas, balki zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismi sifatida baholash zarur. Kelajak tadqiqotlarida slengning rasmiy tilga ta'siri, tillararo o'zaro ta'siri va boshqa tillardagi muqobillari o'rganilishi mumkin.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eble, C. (2012). *Slang and Sociability: In-Group Language among College Students*. University of North Carolina Press.
2. Urban Dictionary. (2024). <https://www.urbandictionary.com>
3. Crystal, D. (2019). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language* (3rd ed.). Cambridge University Press.
4. Tagliamonte, S. A. (2016). *Teen Talk: The Language of Adolescents*. Cambridge University Press.



Research Science and  
Innovation House





## Tillarning o'limiga sabab bo'luvchi omillar

**Mualif: Abdumo'minova Sevinchoy**

Filolgiya fakulteti amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik talabasi  
Mutaxassilik: 60230100 – Filolgiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

**O'qituvch: Shamsiyeva A.Sh**

**Email:** [sabdumominova01@gmail.com](mailto:sabdumominova01@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tillarning o'limi va ularning ortidagi asosiy sabablaridan bo'lmish, globallashuv, ikki tillilik, madaniyat, imigratsiya, til va jamiyat kabi masalalar yoritilgan. Hozirgi kundagi statistik ma'lumotlarga qaraganda, o'lik tillar soni tobora oshib borayotgan bir patyda, tillarning yo'q bo'lib ketishi oldini olish borasidagi chora tadbirlar haqida ham so'z yuritilgan. Mazkur maqolamiz ayni shu masala- Qanday omillar tillarning o'limiga sabab bo'lishi va qanday qilib ularning umrboqiyiligini saqlab qolish mumkinligi haqida.

**Kalit so'zlar:** Til va jamiyat, globallashuv, ikki tillilik, imigratsiya, madaniyat, tabiiy ofatlar.

